

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI BOSHLANG'ICH TA'LIM
METODIKASI KAFEDRASI

5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish
yo'nalishi 4-bosqich 404-guruh bitiruvchisi

SOBIROVA UMIDAXON

HUSNITDIN QIZINING

“Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarni
estetik ruhda tarbiyalash metodikasi” mavzusida

BITIRUV
MALAKAVIY ISHI

Namangan - 2015

ANNOTATSIYA

“Boshlang’ich sinf mehnat darslarida o’quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash metodikasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishda boshlang’ich sinf mehnat darslarining maqsad va vazifalari, mazmuni, mehnat darslarida estetik tarbiyani tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari, estetik tarbiyaning mazmuni, boshlang’ich sinf mehnat darslarida estetik tarbiyaning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o’rni, mehnat ta’limi jarayonida estetik tarbiya berishda qo’llaniladigan turli shakl-metodlar va ulardan foydalanishning ahamiyati haqida nazariy ma’lumotlar, boshlang’ich sinf mehnat darslarida estetik tarbiya berishda mutafakkirlar merosidan foydalanish, estetik tarbiyani mehnat darslarida ish turlari va turli materiallar bilan ishlash jarayonida tarkib toptirish, tajriba sinov ishida estetik tarbiya usullaridan foydalanish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash haqida fikr yuritilgan.

**MAVZU: BOSHLANG'ICH SINF MEHNAT DARSLARIDA
O'QUVCHILARNI ESTETIK RUHDA TARBIYALASH METODIKASI**

REJA:

KIRISH

**I.BOB. BOSHLANG'ICH SINF MEHNAT TA'LIMINING ILMIY-
NAZARIY ASOSLARI**

1.1. Boshlang'ich sinf mehnat fanining ahamiyati, maqsad va vazifalari

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasida mehnat ta'limining
mazmuni

1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga estetik tarbiya berishda
mutafakkirlar merosidan foydalanish

**II. BOB. BOSHLANG'ICH SINF MEHNAT DARSLARIDA
O'QUVCHILARNI ESTETIK RUHDA TARBIYALASH**

2.1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarni estetik ruhda
tarbiyalash metodikasi

2.2. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida turli shakl va metodlar orqali
estetik tarbiya berish

2.3. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida turli materiallar bilan ishlash
jarayonida estetik tarbiya.

TAJRIBA –SINOV ISHLARI

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Kirish

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati: O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritish bilan ilm – fan, texnika sohalari bo'yicha ijodga, iste'dodlarga keng yo'l ochildiki, bu xalqimizni buyuklikka dahldorligini qayta namoyish etib, iymon e'tiqodini, va ijodga fidoyiligini haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsata boshladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi mehnat darslarida barcha tarbiyalar qatori o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashga qaratilgan. Bu orqali malakali kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz o'zining “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asarida:

“Yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashda milliy tarbiya modulini yaratish, talaba-yoshlarda ma'naviy ta'minlanganlikni shakllantirish hamda inson manfaatlarining xalq, millat, davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unligini ta'minlashni, ma'naviyat insonning ulg'ayishi va kuch-qudrat manbai ekanligini, ma'naviy tiklanish hamda yuksalishda, albatta, mustaqillikning zarurligini, ma'naviyatimizga har qanday tahdid o'zligimiz va kelajagimizga tahdid ekanligini, ma'naviy barkamol, g'oyaviy kurashchan inson Vatanimiz taraqqiyotining poydevori ekanligini talabalarga tushuntirish lozim”.¹ degan fikrlari orqali ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning eng asosiy omili bu milliylik va o'ziga xos yondashuv ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiyki boyliklarni, bilimlarni o'rganish o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan bir yo'li ta'lim tizimini tinmay rivojlantirib borish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamol sari yetaklaydi.²

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan ilm-fan, texnika sohalari bo'yicha ijodga, iste'dodlarga keng yo'l ochildiki, bu xalqimizni buyuklikka

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008, 48.b

² I.A.Karimov “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”.Toshkent.”O'zbekiston” nashriyoti, 1995-yil

daxdorligini qayta namoyish etib iymon- e'tiqodini, mehnat va ijodga fidoiyiligini haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsata boshladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz xalqlari shunday ma'naviyatni bunyod etmoqdalar, bu mamlakatda yashaydigan barcha xalqlarni, shod –xurramligini va bir-biriga sadoqati va mehr – oqibatini yuksalishini ta'minlangan holda ilm-ma'rifatga, san'at –madaniyatga, iymon-e'tiqodga, mehnat va ijodga to'la shart-sharoit yaratilgan bir buyuk ma'naviyatga ega bo'lgan jamiyat qurish yo'lida hammani birdamlikka va mustahkamlikka chorlaydi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb –hunar o'rganish tizimini tubdan isloh qilishda nihoyatda katta zaruriyat sezila boshladi.¹ Shu boisdan bugungi kunda mehnat fanini boshlang'ich sinf o'quvchilariga chuqur o'rgatish va o'qish metodikasi bo'yicha yangi texnologiyalarni qo'llash va dars samaradorligini oshirish mehnat sohasida yuqori malakali mutaxassis kadrlarni va ularning ma'naviyati, nazariy uslubiy ustamolligi, mustaqil yurtimizning buyuk kelejagi uchun fidoyi kishilarni tarbiyalash masalasidagi eng dolzarb muammolar xususida fikrlari jam etiladi.

“Yangi darsliklarni zamonaviy pedagogik va Axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur”². O'quvchilarni mehnatga o'rgatishning afzal tomoni shundaki, ular rangli qog'ozlar va turli materiallar asosida mehnat darlarida o'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarini takomillashtirib boradilar. O'quvchilarni mehnat va kasblar olamiga olib kirishning har xil yo'llari orasida “ mehnat ta'limi” fani alohida o'rin tutadi. Maktab boshlang'ich sinf mehnat ta'limining tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilarni estetik tarbiyalash va badiiy didini o'stirishdagi mehnatning ro'li va o'rnini katta ahamiyatga ega. Ular orasida mamlakatimizda yangi “Ta'lim to'g'risidagi qonun” va “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Unda yoshlarni eng ilg'or ilm-fan yutuqlaridan xabardor qilish, buyuk allomalar me'rosini chuqur va

¹ I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” Toshkent, “Ma'naviyat” nashriyoti 2009-yil.

² O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Toshkent -2000.12-bet.

teran o'rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida dars samaradorligini oshirish va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma'rifatli qilishni barcha sharoitlarini yaratish nazarda tutiladi.

Bugungi kunda ta'lim sifatini ta'minlash o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu eng avvalo o'qituvchining mahorati, yangi metodik qo'llanma va yangi ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan nechog'lik tanishish va dars samaradorligini oshirishga borib taqaladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ishonch bilan aytdilar:” O'zbekiston kelajagi buyukligi, avvalo, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy, etik, estetik jihatdan kamol topishi bilan chanbarchas bog'liqdir”¹.

Yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar keng doirasida amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda inovatsion texnologiyalar va ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni chiqarishlari uchun ularga zarur shart sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Bizningcha har bir muammolarning o'ziga xos va o'ziga alohida tavsiyalari mavjud bo'lib, ular mehnat va badiiy mehnat XVI –asrdagi rivoji uchun ma'lum ma'noda o'z xizmatini o'taydi deb o'ylaymiz.

Bugungi o'rta maktablarni O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” to'g'risidagi qonunlari va Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida umumiy va o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq qayta qurish boshlandikim, bu oiliy maktablarga ham bir qator yangiliklarni olib kelmoqda . Bu bugungi kunda respublikamiz maktablarida mehnat ta'limini o'qitishni yaxshilash va buning uchun o'quv samaradorligini oshirishni ko'ndalang qo'ymoqda².

Ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi o'quvchilarga mehnat darslari orqali etik-estetik tarbiyani shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat bo'lib, mehnat ta'limi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o'quvchilarni tabiatga, jonajon o'lkaga bo'lgan mehr- muhabbatni tarkib toptirish,

¹ I.A.Karimov“Yuksak- ma'naviyat yengilmas kuch” Toshkent.”Ma'naviyat nashriyoti”2009-yil 62-63-bet

² I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimi tabrik so'zi “O'zbekiston ovozi”2010-yil 1-sentabr 105-son 1-bet.

shuningdek, go'zallik va xunuklik, yaxshilik va yomonlik, yuksalish va tubanlikni bir-biridan aniq farqlay bilishlariga erishishdir. Bu esa o'z o'rnida ularning boqiylikka estetik munosabatni va hayotda go'zallik yaratish hissini tarbiyalaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didi ularning ma'naviy dunyosini to'g'ri idrok etish imkonini beradi.

Estetik tarbiya yoshlarni ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama rivojlanishiga katta ahamiyat kasb etadi. Go'zallik o'quvchining aqliga, qalbiga ta'sir etib, uning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari:

Izlanishlar orqali dars jarayonida o'quvchilarni san'atga va mehnatga oid bilimlarini kengaytirish, ularni go'zallikni chuqurroq idrok etishga o'rgatish, kasbga yo'naltirish, barkamol shaxs sifatida shakllantirish va vatanparvar ijodkor qilib tarbiyalash, ustoz va shogird an'alarini davom ettirish, yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish va shu asosida estetik tarbiyani singdirish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi. O'zbek xalq sana't turlari bilan tanishish, estetik tarbiya jarayonida mutafakkirlar merosini o'rganish, san'at ustalarining badiiy ijodi bilan tanishish, darslarda yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mehnatga va mehnat ahliga harmat tuyg'usini singdirish, o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish, bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, estetika orqali o'quvchilarni intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, turli shakl va usullardan foydalanish, kuzatuv, tajriba va sinov ishlarini olib borish, yangi g'oya va xulosalar berish, ish yuzasidan ijobiy natijalarga erishish.

Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi tarbiyani oshirishda quyidagi talablarni amalga oshirish lozim: boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimga qiziqishini oshirish va bilimni mustaqil ravishda to'ldirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat birlashmalariga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatiga jalb etish¹.

Estetika haqidagi tushunchalar Qadimgi Sharq va O'rta Osiyoda ham o'z taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan va rivojlangan. Bugungi kunda estetika

¹O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Toshkent.2000-yil.12-bet

turmushimizning barcha sohalariga kirib bormoqda, estetika va ishlab chiqarish, texnika estetikasi, tabiat estetikasi shular jumlasidandir. Go'zallikka intilish insonning doimiy ijtimoiy hayotiy ehtiyojidir. Bu ehtiyoj tarbiya vositasida shakllanadi. Go'zallik qurshovida yashaydigan inson bilan uni aksi bo'lgan muhitda o'sgan inson o'rtasida keskin farq bo'ladi. Go'zallikka intilish insonni ma'naviy jihatdan kamolga yetaklaydi, uning his tuyg'ularini rivojlantiradi .

Go'zallikka intilish estetik ehtiyojdir. Bu ehtiyoj mehnatda ham, san'atda ham, kishilar orasida ham axloqiy munosabatlarda doimo go'zallik bo'lishini taqozo etadi. Estetik madaniyati yuksak kishi ma'naviy- ruhiy jihatdan barkamol, e'tiqodli, ishonchli va diyonatli bo'ladi. Estetika inson tomon boqiylikni nafis idrok etishning eng umumiy qonuniyatlari to'g'risidagi fandir. estetika - insonning o'ziga, o'zi yashayotgan turmush muhitiga havodek zarur bo'lgan go'zallikdir. Estetika shu qadar xilma-xil, rango-rang, jozibali, ehtirosli, mo'jizali, sehrliki, unda moddiy go'zallik bilan ma'naviy go'zallik uyg'un holda chiroy ochib turadi. Insonning estetik olamini anglashga intilishi atrof-voqelikni anglashga intilishi bilan chambarchas bog'liqdir, Inson moddiy go'zallik dunyosini bunyod etish jarayonida ma'naviy go'zalliklarni ham kashf eta borgan, ya'ni nafosat olamining yaratilishi jarayoni - uni anglash mushohada etish jarayoni bilan uyg'unlikda sodir bo'lgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib, takomillashib borgan sari uning ijtimoiy-ruhiy, mafkuraviy-g'oyaviy, siyosiy-ma'naviy intilishlari ham tobora tiniqlashib boradi. Chunki estetik tafakkur insonning maqsad-manfaatlarini estetik badiiy vositalarda nazariy asoslab beradi. Estetik madaniyat badiiy amaliyot asoslarini o'rganish va tahlil qilish bilan boyitiladi, estetik nazariyalarning falsafiy asoslarini ochib beradi, boqiylikning estetik idrok etish jarayonlarini ko'rsatib beradi¹.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", o'zbek

¹ E.Umarov ,R Karimov M Mirzasaidova G Oyxo'jayeva "Estetika asoslari"Cho'lpon nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Toshkent 2011-yil.

pedagogikasi antologiyasi, sharq mutafakkirlarining estetik qarashlari to'g'risidagi fikrlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik, manbalar.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda tabiat vositalaridan foydalanilsa, shart-sharoitlari o'rganilsa, aniqlansa, ma'naviy barkamol shaxslarni tarbiyalashda maktabdagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilsa, ota-onalar oilada bolalarni estetik tarbiyalashga doir bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari ta'minlansa, pedagogik bilimlarni o'zlashtirishda samarali natijalarni qo'lga kiritish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati: Muammoni hal etish jarayonida boshlang'ich sinflarda estetik tarbiyalashning afzalliklari va istiqbollari ochib beriladi; estetik tarbiyani bolalarga o'rgatishning o'ziga xos pedagogik-psixologik va metodik jihatlari yoritildi; metodlari va vositalari tajriba ishlarida qo'llanildi va samarali natijaga erishildi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'yekti

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'yekti sifatida Namangan shahridagi 11-maktabning boshlang'ich sinflari tanlab olindi. Tajriba sinfi 1"D" sinfi, nazorat sinfi 1"A". 1"D" sinf rahbari Zulfiyaxon Abdug'affarova, sinfda 29 nafar o'quvchi bo'lib, ulardan 11 nafari qizlar, 18 nafari o'g'il bolalar. 1"A" sinfda Xolidaxon Abdullayeva, sinfda 30 nafar o'quvchi bo'lib, ulardan 16 nafari qizlar, 14 nafari o'g'il bolalar.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismi

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismini quyidagilar tashkil etadi:

Kirish, 2 ta bob, boblarga tegishli 6 band, tajriba-sinov ishlari, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

I.bob. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limining ilmiy-nazariy asoslari

1.1. Boshlang'ich sinf mehnat fanining ahamiyati, maqsad va vazifasi

Tarbiyaning bo'g'ini boshlang'ich ta'limdan boshlanadi. Ta'lim sohasida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari oldiga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida ma'lum mazmunni fan va texnikaning eng yaxshi yutuqlar bilan boyitishga ta'lim-tarbiya jarayonida mehnat ta'limining rolini oshirish va bolalarni tarbiyalashga ajratilgan. Bu o'z navbatida mehnat ta'limi oldiga murakkab va mas'uliyatli vazifalar qo'yadi. Vujudga kelgan imkoniyatlardan mehnat o'qituvchisi shaxsini har tomonlama rivojlanishi uchun to'liq imkoniyat beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshligidanoq bu jamiyat insonlarning o'zaro birikuvi yordamida insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga kelishi, ayniqsa, boshlang'ich sinflar faoliyati ham ijodiy tanqid ostiga olingan edi. Bunda asosiy jihat maktab boshlang'ich sinflarda kasbga qiziqtirish va maktab ko'nikmalari shakllanmay qolayotganliklari yigit va qizlarning o'z qobiliyatlarini, istaklari ijodiy mehnat moyilliklariga monand holda hayot yo'llarini belgilab olishda qiyinchiliklar sezayotganliklariga ta'kidlangan va shu bilan birgalikda umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq vazifalar belgilab olingan edi.

Boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'lim-tarbiyasi va ma'lumoti, maktabdan mehnat ta'limini namoyon bo'lishi va uning o'zagi bo'lib u bolalarning bilimi, ishlab chiqarish faoliyati o'z -o'ziga xizmat qilishi, o'zaro yordam ko'rsatish estetika va jismoniy rivojlanish jarayonidagi mehnat kuchi harakatlarini qamrab oladi.

Boshlang'ich ta'limi mehnat ma'lumoti buning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida yigit va qizlar mehnatning nazariy va amaliy hamda samarali, eng oddiy asosiy negizlari va tarbiyaviy qismlarni, umumlashgan mehnat malakalarini bilish va amaliy faoliyatni usullarini egallashga qaratilgan.

1932-yilda boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv dasturlari va rejimi to'g'risidagi qarorida maktablarda fan asoslarini fanlardan foydalanib o'tish ishlab

chiqildi. O'quv rejasiga boshqa o'quv fanlari bir qatorda mehnat ta'limi ham mustaqil fan bo'lib kirdi.

1952-yilda mehnat ta'limiga jamoatchilik e'tibori maktab boshlang'ich sinflarda ta'lim va mehnat tarbiyasini rivojlantirishning zarurligi ko'rsatildi.

1954-yilda mehnat ta'limini boshlang'ich sinf o'quv rejasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vositalaridan biri sifatida kiritildi.

Sharq mutaffakkirlarining pedagogik g'oyalari, uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta Osiyodan o'tgan qadimiy buyuk ipak yo'li Xitoy, Vizantiya, Hindiston shaharlari bilan bog'lanib, madaniyat va sanoatni rivojlantirishga, ilmga bo'lgan qiziqishiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat qilishga bo'lgan munosabatini o'zgartirib raqobatga arzigulik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga, hunarmandchilikka, chevarchilikka qiziqishlarini takomillashtiradi.

Forobiyning insoni fazilatlari to'g'risidagi ta'limidan quyidagi ma'lum xulosalariga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshlikdanoq bu jamiyat insonlarning o'zaro birikuv yordamida insonlarning o'z moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga kelishi va jamiatdan tashqarida insondan, jamiatdan ajralgan holda o'zaro yordamsiz o'z ehtiyojini qondira olmasligini tushuntirib berish.

2. O'quvchilarning barcha tug'ma qobiliyatlarini yuksak kamolotga hamda mukammallikka erishishi uchun sarf qiladi va bu yo'lda o'zini qurshagan tabiati hodisalaridan foydalanadi, ularni o'ziga xos bo'ysindiradi, buning uchun ilm-fanni turli hunarlarni o'rganadi Al-Xorazmiy, Al-Roziylarning pedagogik qarashlarida ham jamiyatning rivojlanishida ta'lim tarbiyaning o'rni yosh avlodlarni tarbiyalashda kasbkorlikning, hunarmandchilikning ijodiy ta'siri u insonlarning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishlari zarurligini targ'ibot qilganlar.

Ibn Sinoning tavsiya qilgan asarida tarbiya va ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Aqliy tarbiya.
2. Jismoniy tarbiya.
3. Estetik tarbiya .
4. Axloqiy tarbiya .
5. Mehnat tarbiyasi.

Ibn sino fikricha bolaga ma'lum bir kasb-hanar o'rgatish zarur. O'quvchi kasb-hunarni ma'lum darajada o'rganib bo'lgandan so'ng uni hunaridan foydalanishi va mustaqil hayot kechirishini o'rganish lozim.

Beruniy mamlakatning obodonchiligi ilm-faning ravnaqiga bog'liq, yoshlarning baxt-saodati va kamoloti uning bilimi, ma'rifatida deb biladi. Shuning uchun ham olim, yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlarda rahmdil, mehribon, kishilarga iltifotli, xayrixoh bo'lishni, najotsiz odamga qo'l cho'zishni, makkorlik, ayyorlik, adolatsizlik, jur'atsizlik, boylikka xirs qo'yish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab etadi.

Prezidentimiz I.A Karimovning Respublika Oliy majlisi IX-sessiyasida so'zlagan nutqida boshqa ta'lim turlari qatori umumiy o'rta ta'lim maktablari, ayniqsa, boshlang'ich sinflar faoliyati ham jiddiy tanqid ostiga olingan edi. Bunda asosiy jihat boshlang'ich sinflarda kasbga qiziqtirish va mehnat ko'nikmalari shakllanmay qolayotganligi yigit va qizlarimiz o'z qobiliyatlari, istaklari ijodiy va mehnat moyilliklarga monand holda hayot yo'llarini belgilab olishda qiyinchiliklar sezilayotganligi ta'kidlangan va shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq vazifalar belgilab olingan edi.

Mehnat ta'limi o'qituvchilar rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikmalarini egallashlariga ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligini

beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyatidir¹.

Mehnat ta'limi mazmuni shu vazifalarga to'la bog'liqdir, ya'ni shu vazifalarga ko'ra belgilanadi. Masalan: ta'limni umumli mehnat bilan birga qo'shishni ta'minlash zarurligi boshlang'ich sinfdagi o'qitish mazmuniga, jumladan, mehnat ta'limi mazmuniga qator talab qo'yadi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari imkoniyatiga qarab umumli mehnatni o'z ichiga olishi kerak.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumli mehnati ularning o'quv faoliyatlariga tartiban qo'shilib ketishi kerak.

3. Umumli mehnat mazmunida bolalarning yosh imkoniyatlari, mehnat ta'limi vazifalari, ishlab chiqarish muhitining xarakteri hisobga olinishi kerak.

4. Maktab boshlang'ich sinflarga ta'limning ishlab chiqarish malakasini berish bilan tugallanishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning amaliy faoliyatlariga alohida e'tibor beriladi, bunga o'quv vaqtining 80-85% i ajratiladi. Mehnat topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar ko'rsatmali qo'llanmalar, materiallar, o'yinchoqlar, tabiiy materiallardan buyumlar tikadilar va yasaydilar.

I-IV –sinflarda ustaxona amaliy mashg'ulotlari bilan mehnat darslarining bog'lanishi va harakteriga ko'ra bir tomonlamadir ya'ni, V-VII-sinflardagi mehnat ta'limi mazmunini hisobga olgan holda tuzilishi kerak.

Mehnat ta'limining metodlaridan biri suhbat bo'lib odatda mehnat ta'limi shartlarida o'quv ko'rgazmasi bilan birga amalga oshiradigan tushuntirish tez –tez qo'llanadi.

Hikoya va tushuntirishga qator talablar qo'yiladi:

1. Mazmuning to'g'riligi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga aytiladigan o'quv rejasining mazmuniga mos kelishi va ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.

¹A.I.Vorobyev "Mehnat ta'limi" Toshkent O'qituvchi -1992-yil 22-bet

2. Materialni o'zini oqlagan izchillikda bayon qilishi. Avval o'quvchilarni tarkibiy qismlarga bo'lish, ularni o'rganish va unga chuqurroq qarash kerak.

3. Aniqlik va isbotlilik. Mehnat ta'limining mazmuni, odatda, o'quvchilar tanishadigan nazariy qoidalarini va mehnat usullarini bajarish qoidalarini qisqa, aniq va ishonchli asoslash imkonini beradi.

4. Bayonni tushuntirib berish. Agar o'qituvchi o'zi bayon qilayotgan materialga loqayd munosabatda bo'lsa bu hol o'quvchilarga ham o'tadi va aksincha o'qituvchi mavzuni ta'sirchan yo'sinda bayon qilsa yaxshi saqlab qoladilar.

5. O'qituvchining nutq madaniyati, uni o'quvchilar tushina oladigan bo'lishi.

Mehnat ta'limi bo'yicha davlat ta'limiga yo'naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o'quvchilarning mehnat ta'limi fanidan tayyorgarlik darajasining me'yorlari ifodalanadi.

Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaga oid fikr mulohazalari uning bizgacha yetib kelgan juda ko'p asarlari orasida tarqoq holda saqlanib qolgan. Ibn Sino tavsiya qilgan asarida tarbiya va ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma malakalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligini beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir. Mehnat ta'limining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilariga faqat bilim ko'nikma va malakalar berishgina emas, balki ularda mehnatga, jamoa va mulkka, jamoa va uning alohida a'zolariga ongli munosabatini, shaxsiy va jamoa foydasi uchun ishlashga tayyorgarlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Mehnatga ongli munosabat – har bir shaxsning axloqiy qiyofasining asosiy xususiyatidir. Har bir o'quvchi mehnatni shaxsiy hayoti va o'zaro yordam xissini tarbiyalab borishi lozim. Mehnat topshirig'ini bajarish jarayonida ular ba'zi ishlarni birgalikda, bir-birlariga yordam berib, maslahatlashib bajarishga to'g'ri keladi. Bu

imkoniyatga o'qituvchi vaqtida tabiiy va tashlandiq materialni ko'plab yig'ish hamda maktabga olib kelib mehnat darsida ham foydalanadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir darsda bu haqida bolalarga ko'rsatma berishi yangi bajarilgan ishlardan ularga namunalar ko'rsatib turishi yaxshi natija beradi. Boshlang'ich sinf ta'limida o'qitishning har xil metodlaridan foydalaniladi. Ta'lim metodlarini tanlash avvalo o'quv material va o'quv vazifasining harakteriga bog'liq.

Mehnat ta'limiga doir o'quv vazifalari maktabdagi boshqa fanlarning o'quv vazifalari singari o'quvchilarga yangi bilimlar berish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish bilimlarni amalda qo'llash va hokazolar. Bilim asosan bir xilligi uchun ta'lim metodlari ham asosan bir xil bo'ladi. Bu gap asosan nazariy mashg'ulotlarga taaluqli bo'lib, bunday mashg'ulotlar quyi sinf o'quv dasturlarida bevosita nazarda tutilgan.

Boshlang'ich sinflarda mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish mehnat ta'lim metodikasida juda muhim o'rin tutadi. Mantiqiy o'qitish metodlarini o'ziga xos xususiyatlari shuki, unda o'qitish jarayonini o'qituvchining mehnat usullarini namoyish qilish va o'quvchilarning unga taqlid qilishi asosida tashkil topadi. Asosiy qoidalari, shartlari quyidagilardan iborat:

- 1) topshiriqni aniqlash, uning maqsadi va bajarishni tushintirish.
- 2) o'quvchilarda zarur bilimlarni mavjud bo'lishi.
- 3) ta'lim metod va usullarini shakllantirayotgan ko'nikma va malakalarni hususiyatlariga moslash.
- 4) o'quvchilarni o'z vaqtida baholash, o'quvchilarni baholash natijalaridan habardorligi.
- 5) o'quvchilar faoliyatini aktiv harakteri.

Boshlang'ich sinflarda ko'rsatmali metodidan foydalanish va uning tasvirini namoyish qilish va o'quv qurollari bilan ishlash kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Mehnat ta'limida ko'rsatmali metodning xususiyati shundan iboratki bunda ko'rsatmalilik, ko'nikma, o'quv materialiga illutsiya sifatida emas, balki uning o'zi bilim manbai bo'lib ko'p hollarda esa ko'nikma va malakalarini shakllantirish usuli

bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf mehnat ta'lim mashg'ulotlarida o'quvchilarni turli materiallardan o'yinchoqlar yasab tikish, to'qish usullari bilan tanishtirib borish birinchidan ularning badiiy estetik ijodkorlik ruhida ham tarbiyani amalga oshiriladi, ikkinchidan qiz bolalarni tikish, to'qish, bichishga qiziqtirib boriladi. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda badiiy mehnat va tasviriy san'atning ko'nikma turlaridan keng foydalanish mumkin. O'quvchilar xalqimizning rivoyatlari, ertak-dostonlari, latifalari, maqol-topishmoqlarini o'rganish orqali tasviriy san'atning naqqoshlik, ganjikorlik, rang-tasvir, haykaltaroshlik va boshqa sohalari bilan ham tanishib boradilar.

Respublikamiz o'quvchi yoshlari milliy o'zlikni anglash, o'tmishni tushinish, o'zbek xalqining tarixiy qadriyatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash badiiy ta'lim tizimining asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadiki, uni amalga oshirishda milliylik, tashabbuskorlik, zamonaviylik, tarihiylik kabi tamoyillarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning mazkur tushuncha va hislatlarini yanada boyitish uchun tasviriy san'at va badiiy mehnatdan dars va darsdan tashqari ishlar mazmunini takomillashtirish va undagi vatanparvarlik tarbiyasi masalalarini maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi tezlik bilan jadal rivojlanayotgan davrda, turmushda uchrab turadigan ayrim qiyinchiliklar yoshlarni bilim olishga, hunar o'rganishga bo'lgan munosabatlarini susayishiga, o'tkinchi narsalar bilan chalg'ib qolishlariga sabab bo'lmoqda. Yoshlarni bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishni ta'minlash, undan to'g'ri foydalanish yoshlarni yomon oqimlar tas'iriga tushib qolmasliklarini oldini oladi.

Yoshlarni san'atga hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda xalq ustalarining badiiy ijodi, estetik qarashlari, inson didi va falsafasi bilan tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki xalq ustalarining badiiy ijodida yog'och o'ymakorligi katta o'rin egallaydi. Bolalarga narsalar tikish va to'qishning tarixiy rivojlanishi va bugungi kundagi taraqqiyoti yoshlarni bu kunlarga bo'lgan qiziqishlarini orttirib kelmoqda. Buning zaminida, albatta estetika yotibdi.

Umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi umumta'lim maktablari 1-4 –sinf mehnat ta'limi fanining mazmun, maqsadi, vazifalari, tamoyillari va boshqa mezonlarini belgilaydi. Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim To'g'risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ishlab chiqilgan. Bu dastur asosida 1998-1999-o'quv yilida Respublikamizning belgilangan maktablarida tajriba -sinov ishov olib borildi.

O'rta maktabda o'qitiladigan mehnat ta'limining maqsadi o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarlikni 5-sinf uchun uzviy bog'lanish zaminini yaratishdan iborat.

Bular: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hisoblanadi. Ularda davlat ta'lim standartlariga asoslangan yo'nalishlar bo'lib, quyidagicha ifodalanadi. Ta'limiy maqsad-o'quvchilarni barkamol shaxs bo'lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar asoslarini (texnologiyasini) o'rgatish, ularni kasb tanlash bilan uyg'unlashtirish orqali ularning kasbga tayyorgarligiga zamin yaratishdan iborat.

Tarbiyaviy maqsad-o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va tadbirkorlikni shakllantirishdan iborat.

Rivojlantiruvchi maqsad-mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy - estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularni barkamol shaxslar bo'lib yetishishlariga yordam berishdan iborat.

1-4-sinfidagi barcha fanlarni o'qitish o'quvchilarni mehnat qilish va kasb tanlash bilan uzviy bog'lab tayyorlashdan iborat. 1-4-sinf mehnat ta'limi fani mazmuni shartli ravishda umumiy mehnat ta'limi fani tayyorgarligi, uning mazmunidan mavjud bo'lgan kasblarning atroflicha ma'lumotlari bilan tanishish hamda shu yoshga xos mahsus tayyorgarlik qismlaridan iborat. Bu qismlar har bir dars

va mashg'ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo'lib, ularni o'qituvchilar, uslubchilar tomonidan ilmiy uslubiy nuqtayi nazaridan hisobga olgan holatda tahlil qilib borish mehnat mashg'ulotlarining aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash uchun zarur. Mehnat ta'limi darslarini 1-4-sinfda umumiy va badiiy mehnat kursi xalq amaliy bezak san'atlari sohasidagi ayrim kasblar asoslari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Bu kurs bo'yicha mashg'ulotlar mazmuni bajarilayotgan mehnat jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan. Amaliy eskizlar, jadvallar, rasmlar, naqshlar ishlash va ayrim dizaynerlik qoidalarini o'rgatishdan iborat. Shu nuqtayi nazarga asoslangan holda 1-4-sinf mehnat ta'limi o'quv fani tarkibiga quyidagi o'quv kurslari kiritilgan. Umumiy va badiiy mehnat, amaliy ishlari va buyumlar tayyorlash tartibi. Ushbu yo'nalishlarning har biri yuzasidan quyidagi mavzular bo'yicha o'zaro uyg'unlashtirishga nazariy bilimlar beriladi va amaliy ish ko'nikmalari shakllantiriladi.

1. Materialshunoslik asoslari.

2. Asbob -uskunalar haqida ma'lumot va ularni ishlatish usullari.

3. Milliy hunarmandchilik kasblari bo'yicha umumiy ma'lumotlar va o'zaro turdosh kasblar dastlabki tayyorgarlik hamda ularni 5-sinfda o'zaro uyg'unlashtirilgan holda integratsiyalashtirilib o'qitish jarayonida amalga oshirib boriladi. 1-4-sinfda ta'lim o'quvchilarning ijtimoiy dunyoqarashlarini kengaytirgan holda olib boriladi. Ular kasb –hunarni ongli ravishda tanlashga yo'naltiriladi.

Bunda o'quvchilarning tanlagan kasblariga nisbatan qiziqishlari, shu kasblar ularning munosabatlariga muvofiq va qobiliyatlari turlariga mos bo'lishini, kasb tanlashning ongli, mustaqil ravishda amalga oshirishini, o'quvchilarning shaxsiy intilishlarini, imkoniyatlarini jamiyat ehtiyojlari bilan mos kelishini ta'minlashi lozim. 1-4- sinfda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari mahalliy ehtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, shuningdek, istiqbollarni belgilovchi rahbar, idoralar tavsiyalari asosida hamda mahalliy kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning yo'nalishlarini hissobga olgan holda tashkil etadi. 1-4-sinf mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda kasblar turlariga oid bilim, ko'nikma va

malakalarni maktab joylashgan hududdagi imkoniyat va ehtiyojlarini hissobga olgan holda tanlanadigan kasblar asosida shakllantiradi. Hozirgi sharoitni hissobga olgan holda ko'proq maktablarda mehnat ta'limi mashg'ulotlarining mazmuni asosiy milliy hunarmandchilik kasblari yo'nalishida olib boriladi.

Mehnat ta'limi bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv xonasi hamda unda maxsus ish joyini tashkil qilish va ulardan xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini tashkil qilish. O'quvchilarni mashg'ulotlar uchun zarur materiallar, xom-ashyo asboblari bilan ta'minlash, moslamalar mexanizmlari bilan ishlarini tashkil qilish, sanitariya – gigiyena mehnat xavfsizligi bo'yicha me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarning to'liq bajarilishini ta'minlash va muntazam nazorat qilib borish.

O'quvchilarning turli kasblar bo'yicha mehnat jarayonlari va kasb egalari bilan yaqindan tanishtirishni amalga oshirish uchun korxonalar, jamoa xo'jaliklari, tashkilotlar, kasb-hunar kollejlari bilan doimiy aloqalar o'rnatish lozim. Rasmiy hujjatlar, ish rejalari, o'quv xonada ishlash qoidalari, ayrim mexanizmlar, elektr jihozlari bilan ishlash, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari, sinf jurnalini yuritishdan iborat. Mashg'ulotlarning yarim va bir yillik ish rejalari tuzish. Bunda mahalliy sharoitlar ehtiyojlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda o'quvchilarni yaqindan tanishtirish mumkin bo'lgan kasb turlarini tanlash, o'g'il va qiz bolalarning o'zlari xos mehnat mashg'ulotlarini va kasb tanlashlarini amalga oshirib borish. Mashg'ulotlarda zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalar, yangi didaktik vositalardan keng foydalanish, mehnat ta'limi va tarbiyasining birligini ta'minlash. O'quvchilarda turli kasblarga tegishli dastlabki ko'nikma, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish .

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni aqliy va axloqiy, estetik jihatdan rivojlantirib borishda ularning yosh xususiyatlarini, shaxsiy, psixologik va fiziologik sifatlarini hisobga olish. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish. O'quvchilarni bilim, o'quv ko'nikmalarini turli usullar bilan davlat ta'lim standartlariga binoan nazorat qilib borish ishlarini bajarish lozim bo'ladi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda mehnat ta'limining mazmuni

Mustaqil vatanimizning yanada gullab-yashnashi kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodning har jihatdan yetuk, barkamol bo'lib tarbiyalanishiga bog'liq ekanligi yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan alohida ta'kidlanmoqda. 2014-yilning "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi mamlakatimizda har tomonlama yetuk, sog'lom barkamol, yosh avlodni yetishtirib chiqarishda joriy yilda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning bosh maqsadi bugungi yosh avlodni, farzandlarimizni ertangi murakkab hayotga tayyorlash vazifasi hissoblanadi. Yosh avlod zamonaviy bilim va tajribaga ega, iymon-e'tiqodli bo'lishi, vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizning ishini davom ettira oladigan bo'lishlari lozim. "Kelajak buyuk davlat qurishini istar ekanmiz shu maqsadga yetishishning muhim sharti deb ta'riflaydi prezidentimiz Islom Karimov,- bizning o'rinbosarlarimiz bo'ladigan barkamol avlodning bilim saviyasi va tafakkuri bilan bevosita bog'liqdir".

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni hamda Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida ta'kidlanganidek, o'quvchilarni mustaqil mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy va estetik tafakkurini rivojlantiruvchi usullardan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining, qolaversa, mehnat ta'limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi".

Chunki "... barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan ham sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan barkamol shaxsni tarbiyalash orzusi turadi¹".

Vatanimizning kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkor shaxsni yaratishda boshlang'ich ta'lim mustahkam poydevori rolini o'ynaydi. Har tomonlama gormonik rivojlangan jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni

¹ . I.A.Karimov " Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligi oshirishga xizmat qiladi. "Xalq so'zi " gazetasi, 2010-yil 22-yanvar, 1-bet

tarbiyalashda o'qituvchining xizmati beqiyosdir. Bu haqida yurtboshimiz Islom Karimov oily majlisda so'zlagan "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli tarixiy nutqlarida alohida to'xtalib, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy ma'lumotli, o'z fanini chuqur biladigan, zamonaviy texnologiyadan xabardor, keng dunyoqarashga ega, pedagogik hamda tashkilotchilik qobiliyatlari yuqori, ijodkor shaxslar bo'lishlari lozimligini ta'kidlagan edilar¹.

Har tomonlama yetuk, ya'ni aqliy, jismoniy, estetik, axloqiy tarbiyasi yuqori darajada bo'lsagina, u barkamol shaxs hisoblanadi. Barkamol shaxs tarbiyasida mehnat ta'limining ahamiyati beqiyosdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda ruhiy tarbiya, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi kabi tarbiya turlarini uzviy holda amalga oshirish orqali ko'zlagan maqsadga erishishimiz mumkin bo'ladi. Tarbiya turlarini birma-bir tahlil qilib chiqamiz. Bu muammoimizni bartaraf bo'lishini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya.

Barkamol shaxs deganda biz ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan yetuk, bardam, har ishga qodir, ilg'or madaniyatli kishilarni ko'zda tutamiz. Insonni barkamol bo'lishiga sabab bo'ladigan omillardan biri- jismoniy tarbiyadir.

Jismoniy tarbiya inson hayotida katta ahamiyatga ega. Birinchidan, hayotda har kimning mukammal sog'lik – salomatlikka, kuch-quvvatli badanga ega bo'lish ehtiyoji bor. Ikkinchidan, badan sog'ligi fikr va axloqning ham sog'ligini ta'min etadi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi har tomonlama jismonan chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, Vatanni himoya qila oladigan barkamol shaxslarni kamol toptirishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda bolalarning qaddi-qomatini to'g'ri shakllantirish, suyak -bo'g'inlarini va muskullarini uyg'unlashgan tarzda rivojlantirish, yurak – tomir hamda nafas olish a'zolarining asab tolalari majmuasini mustahkamlashtirish muhim. Mo'tadil ravishda, o'z vaqtida jismoniy

¹ Ibn Sinoning tavsiya qilgan asarida tarbiya va ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi.

tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam kasalliklarning davosiga muxtoj bo'lmasligini chuqur anglab olishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda jismoniy tarbiya mashqlari tartibli olib borilsa, fikrni uyg'unlashtiradi, qon yurishiga yordam beradi, hazmni yaxshilaydi, asabni quvvatlantiradi, tana haroratini orttiradi, zehnni ochadi. Inson jismoniy sog'lom va bardam-baquvvat bo'lsa, hayot go'zalliklarini yaxshi idrok etadi, aql- zakovati yuksala boradi, atrof- muhitni ziyrak bo'lib kuzatadi. Shu nuqtayi nazardan aytganda, inson bolasi sog'lom, baquvvat bo'lishida jismoniy tarbiya muhim omil ekani aniq. Demak, jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy va estetik tarbiyaning zamini ekan.

Jismoniy tarbiya insonni har tomonlama tetik, hushyor, qobiliyatli tarzda kamolga yetkazadiki, donolar jismoniy tarbiya-go'zallik tarbiyasidir, deb bejiz aytishmagan. Inson jismoniy sog'lom, har tomonlama yetuk rivojlanishi uchun ma'lum maqsadni ko'zlagan holda rejimli harakat qilishi, tabiat qo'ynida yoki ozodashinam sport zalida harakatli mashqlar, qishloq xo'jaligi mehnati bilan shug'ullanishi-bularning hammasi unda nafosat his-tuyg'usini, aqliy tushunchasini va estetik didini tarbiyalaydi. Shubha yo'qki xilma-xil, aniq, ifodali bajarilgan jismoniy mashqlar estetik kechinma, hislarni yuzaga keltiradi. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida harakatlar maqsadining ham shakl, ham mazmun jihatidan bir-biriga mos kelishi esa uning go'zalligini ta'minlaydi.

Barkamol shaxs O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. U jamiyatda, jamoada, xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik, sog'lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladi. Barkamol shaxsni shakllantirishda maktabda, oilada, sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Estetik tarbiya (Nafosat tarbiyasi).

Estetik tarbiya (Nafosat tarbiyasi) bu o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uygotish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushinish, xullas, o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida qura olish - barkamol shaxsning eng zaruriy fazilatidir.

Insonda go'zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof-muhit ta'sirida shakllanib boradi. Nafosat tarbiyasi – eng avvalo har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Nafosat tarbiyasi aql bilan, hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda imiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his- tuyg'ular va ko'nikmalarni o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib, oliyanob bo'lib boradi, uning hayoti yanada sermazmun bo'ladi, yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbat ortib boradi. Nafosat tarbiyasi bugungi kunda shuning uchun ham muhimki, did – farosatlilik mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida ham o'quvchilarga estetik ruhda tarbiya beriladi. Ular bajarayotgan ishlarini ixcham va go'zal qilib tayyorlashga o'rgatiladi. Did –farosat har bir insonning hatti-harakatida, kiyinishida, yurish- turishida, kishilarga bo'lgan munosabatida, jamiyatdagi u yoki bu vaqealarga yondashishida yaqqol ko'zga tashlanadi .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda odob va nafosat tarbiyasi o'zaro chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq –odobda, chiroyli xatti –harakat, go'zal munosabatda va

hayotga, kelajakka, insonlarga tabiatga muhabbatda ko'rinadi. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida shunday allomalar fikrlaridan foydalanish ahamiyatlidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda estetik, ya'ni go'zallik tarbiyasini singdirishning ahamiyati katta. Bunday tarbiya, avvalo, bolalarni turmushdagi go'zallik va xunuklikni tushunish, his etish orqali ma'lum bir kayfiyatni shakllantiradi, ularda go'zallikdan zavqlanish, xunuk qiliq, xatti-harakatlardan nafratlana olish qobiliyatini paydo qiladi, kishilarni ma'naviy fazilatli bo'lishga yetaklaydi .

Estetik did, estetik qobiliyat, hissiyot madaniyati birdaniga paydo bo'lmaydi, tabiatdan tayyor holda berilmaydi. har qanday insoniy qobiliyat qatorida go'zallik tuyg'usi ham tarbiyalash, rivojlantirish, takomillashtirishga muhtojdir. Bularning hammasida inson go'zalligi nomoyon bo'ladi. Xalqimiz "Yaxshi husningni yomon xulqing buzadi ", deb bekorga aytmagan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafosat tarbiyasini singdirishni bolalik davridan boshlash nihoyatda muhim, bu davr inson hayotida fe'l-atvor, irodaning, did, go'zallik tuyg'usi va hayotiy tushunchaning paydo bo'lishi va shakllanishi davridir .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda oila, maktab va jamoatchilik va shu bilan birga mehnat ta'limi ham asosiy rol o'ynaydi. Mehnat darslarida barcha ish turlari orqali ham estetik tarbiya berib boriladi. Qizlar uchun igna bilan kiyimlar tikish ishlari bo'lsa, o'g'il bolalar uchun maketlar yasashda estetik jihatdan ishga e'tibor berish kerak bo'ladi. Bunda ota-onalar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda moddiy va ma'naviy boylikka ham e'tibor berishlari lozim bo'ladi.

Nafosat tarbiyasi ta'sirida bolalar qalbi shunchalik noziklashadiki, ular har bir so'zni darhol quloqqa oladigan bo'ladi, qalb fazilati ortadi, nafosat his – tuyg'usi kuchayadi, his etish, tushunish, qadrlash, zavqlanish, bir hodisaga munosabat bildirish, nafratlana bilish – bular nafosat tarbiyasining muhim belgilari hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasi

Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib kelgan. Mehnat odamlarning biror maqsadi uchun sarflagan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun bolalarni juda kichik yoshidan boshlab mehnatga o'rgatish zarur .

Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy mehnatsevarlikni chinakam insoniy fazilat deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishni yuksak ko'tarinki ruh bilan madh etgan. Yoshlarni sidqidildan mehnat qilishga , mehnatni qadrlashga chaqirgan. Ular yoshlarni kasb-hunar o'rganishga, har kim o'zi qiziqqan va o'ziga munosib faoliyat bilan shug'ullanishiga da'vat etganlar. Mehnatkash odam hech vaqt birovga qaram bo'lib qolmaydi degan fikrni ilgari surganlar. O'qituvchilar mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarning mehnat ta'limi va tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berib, yoshlardagi qiziquvchanlik, tejamkorlik, do'stlik va odamiylik, ijodkorlik kabi oliyjanob fazilatlar mehnat orqali vujudga kelishini ularga tushuntirishlari kerak .

Yoshlarni mehnatsevar bo'lib tarbiyalanishi bilan bir vaqtda , inson qo'li bilan yaratilgan narsalarni qadrlashga, ardoqlashga va uni uvol qilmaslikka odatlantirish zarur. Mehnat faqat hayotiy zarurat va moddiy farovonlik manbai bo'lib qolmay, yoshlarda yaxshi xulq va ma'naviy sifatlarni vujudga keltiradi; loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va mamnunlik hislarini paydo qiladi.

O'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda yoshligidanoq biror hunar yo kasb etagini mahkam tutgan yigit-qizlar hayotda o'z o'rinlarini topishlarini, qoqilmasliklarini ularning ongiga singdirib borishimiz lozim. Ota-bobolardan qolgan hikmatda “Bir yigitga qirq hunar oz ” deb bejizga aytilmagan.

O'quvchilarni mehnat tarbiyasi dastlab oilada, maktabda o'quv-tarbiya ishining butun tizimida, bolalarning ommaviy tashkilotlari faoliyatida, ishlab chiqarish jamoalari mehnatida ishtirok etishlari orqali amalga oshiriladi.

Maktabda mehnat tarbiyasining yaxshi borishi maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab kichkintoylarga mehnat tarbiyasi berib borishga bo'g'liqdir. Bolalarga kattalarning mehnati, kasb-hunarlari to'g'risida so'zlab berish ularning mehnatini hurmat qilish lozimligini tushuntirib borish ham zarur.

Boshlang'ich maktabdagi mehnat mashg'ulotlari o'quvchilarning har tomonlama uyg'un rivojlanishiga xizmat qilib, u o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni, badiiy didni o'stirishda va ularni axloqiy jihatdan tarbiyalashda alohida o'rin egallaydi. O'quvchilarda mehnatsevarlikni tarbiyalash uchun, avvalo ular bajargan ishining inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirish va bu ishni bajarishga ularni qiziqtirish zarur¹.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, barcha tarbiya turlari o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Barkamol shaxs tarbiyasida mehnat ta'limining ahamiyati katta. Bilamizki barkamol shaxsda barcha tarbiya turlari mujassamlashgan bo'ladi, ya'ni barkamol shaxs har tomonlama yetuk, jismonan kuchli, yuksak didli, axloqan namunali va albatta mehnatsevar bo'lishi kerak.

Ushbu xislatlardan birontasi unda yug'unlashmagan bo'lsa, u holda barkamol shaxs hisoblanmaydi. Hamma tarbiya turlari zahirida mehnat tarbiyasi yotadi. Mehnat darslarida biror buyum yasash orqali o'quvchilarga mehnatsevarlikni, uni bezash jarayonida estetik tarbiyani, tejamkorlik orqali axloqiy tarbiyani singdiramiz. Barkamol shaxs tarbiyasida mehnat ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz I. A. Karimov ham barkamol shaxs tarbiyasiga alohida e'tibor berib quyidagi fikrlarni bildirganlar: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni, obro' - e'tibori avvalambor, farzandlarimizning unib - o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni unutmasligimiz kerak".

Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlaridan quyidagi xulosalar kelib chiqadi: barkamol shaxs inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini

¹R. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev "Pedagogika" Toshkent. "O'qituvchi" 2001.365-444-betlar

anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Kamoliddin Behzod bilan tanishtirib borish lozim. Chunki, u rassomchilik, o'ymakorlik va boshqa san'at turlarining yaratuvchisidir. Kamoliddin Behzod xalq orasida "Sharq rafaeli"- deb nom olgan. Behzodning musavvirlik maktabi va mahorati Temuriylar davri madaniyati tarixiga balki jahon rasm, bag'ishlangan barcha tadqiqotlarda o'z davri san'atining ajoyib yutug'i sifatida alohida ta'kidlab o'tiladi. Kamoliddin Behzod XV asr tasviriy sa'atining ulug' namoyandasidir. U musavvirlikda "Hirot maktabi" deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi. U tarixiy siymolar Husayn Boyqaro, Sayboniyxon, Alisher Navoiy va boshqa tarixiy nodir portretlarni haqqoniy, ta'sirli qilib bera olgan. Kamoliddin Behzodning olmas san'ati bizgacha etib kelgan va bu yoshlar tabiyasida, ayniqsa estetik tarbiyada muhim o'rinni egallaydi.

Behzod nafaqat Sharq xalqlari musavvirchiligi tarixida o'chmas iz qoldirgan, o'zining ajoyib va qimmatbaho miniatyura durdonalari bilan butun dunyo madaniyati tarixida salmoqli o'rin olgan buyuk va zabardast san'atkoridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga estetik tarbiya berish jarayonida mutafakkirlar merosidan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni mutafakkirlarimiz yaratgan nodir durdonalardan estetik zavq va bahra olishga, ularni izidan borishga undashimiz kerak.

1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga estetik tarbiya berishda mutafakkirlar merosidan foydalanish.

O'quvchilarni o'z ona Vatanlarini yanada yaxshiroq bilishlari, hozirga qadar, bizgacha yetib kelgan qadimiy me'morchilik yodgorliklarini va shu kabi milliy qadriyatlarimiz namunalarini ko'z qorachig'idek asrashga o'z hissalarini qo'shish, ajdodlarimiz mehnati mahsuliga hurmat bilan qarash va shu orqali ularda vatanparvarlik hisilarini uyg'otish asosiy omillaridan biridir.

Yosh avlod zamonaviy bilim va tajribaga ega, iymon e'tiqodli bo'lishi Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldiradigan buyuk ajdodlarimizning ishini davom ettira oladigan bo'lishlari lozim. O'qituvchi darsni shunday tashkil etmog'i lozimki bu jarayonda o'quvchilarning nafaqat zamonaviy texnologiyadan foydalangan holda ,balki ajdodlar merosidan foydalanib yangi bir usulni joriy qilishga o'rgatmog'imiz lozim.

Mutafakkirlar merosidan boshlang'ich sinf mehnat darslari jarayonlarida foydalanish orqali o'quvchilarni san'atga, mehnatga, kasbga, badiiy merosimizga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ijodkor va kelajakda malakali kadrlar bo'lib yetishishlariga ko'maklashishdan iborat. Mutafakkirlarimiz merosi bo'lgan san'at asarlari, she'rlar, dostonlar, hikoyalar, ertaklar, masallar, hadislardan mehnat darslarida mahnatga, san'atgaahloq va odobga tegishlilaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bular orqali o'quvchilar badiiy milliy merosimizni o'rganish ,san'atga va Vatanga bo'lgan muhabbatlarini singdirish kabi ulkan maqsadlari amalga oshiriladi.

Mehnat ta'limi jarayonida mutafakkirlarimiz qoldirgan boy meroslar: she'rlar, hikoyalar, dostonlar, maqollar, hadislar, ertaklar, tasviriy va amaliy san'at ustalarining asarlaridan foydalanish orqali o'quvchilar bilimini,intellektual salohiyatini, ijodkorligini oshirish, estetik didini yuksaltirish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Darslar samaradorligi ortadi, o'quvchilarni kasb egalari bo'lishiga ko'maklashadi. Ustoz va shogird an'analari davom ettiriladi.

Mehnat va estetik tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar. Ta'lim tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib,buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi kasb-hunar o'rganish nafaqat aholini hurmat qilish hamda estetik tarbiya berish,insonni ulug'lash masalalariga alohida etibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-ahloqiy asaralar,x alq og'zaki ijodi namunalari, ya'ni

maqollarda, she'rlarda ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning, "Qobusnoma" Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Mahmud Qo'shg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlarining ko'rishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat haqidagi tasavvurlarni mehnatsevarlik haqidagi maqollarda va she'rlarda tushintirib o'tishimiz mumkin. Maqollarda ham estetik tarbiya, mehnatsevarlik, mehnatga hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan.

Masalan:

Daryo suvini bahor toshirar,

Inson qadrini mehnat oshirar.

Oltin o'tda bilinar ,

Odam-mehnatda.

Mehnatda do'st ortar

G'iybatda dushman, kabi maqollar shular jumlasidandir.

Bu orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga kelajakdagi o'z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnatga estetik did bilan yondashish lozimligini tushintirib o'tishimiz kerak.

Maqol chuqur va keng ma'noli, tugal fikr anglatuvchi ta'sirchan nutq bo'lib, unda fikr aniq, yaxlit xulosa, lo'nda hukm tarzda ifodalanadi. So'z ko'rki bo'lgan mazmundor maqollar boshlang'ich sinf o'quvchilarini so'z boyligini, nutq madaniyatini o'stiradi, estetik dunyoqarashini kengaytiradi, ular ko'nglida mehnatga va ota-onaga mehr uyg'otadi, o'quvchilarni mehnat, kasb-hunar ilm-fanga befarq bo'lmaslikka o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy va estetik tarbiyalashda maqollarning o'rni katta. Chunki maqollar xalqni ko'p asrlik mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida to'plangan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga keladi. Xalq maqollari o'ziga munosib o'rinbosar tayyorlaydigan insonga yaxshi tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'tmishda yaratilgan va bebaho manba sifatida ishlatilib kelinayotgan maqollar,

yoshlar, xususan boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik va ahloqiy tarbiyalash nutqni o'stirish, ularni xalq donishmandligi durdonalari bilan tanishtirish hamda ularda xalqchil xislatlarini tarbiyalashda hozir ham katta ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat darslarida maqollarni bilish, o'rganish tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega, chunki xalqning bebaho merosi hisoblangan maqollar komil insonni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan:

“Yer –hosilning onasi bo'lsa,otasi mehnat”.

Har bir maqol –xalq hukmi, ular biror narsani lo'nda qilib tasdiqlaydi yoki inkor qiladi, ya'ni haqiqatni ifodalaydi. Maqol va hikmat pand-nasihat koni bo'lgani uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'ziga jalb etadi. Ularni diqqat-e'tibor va estetik shavq-zavq bilan tinglash hamda o'rganib olishga rag'batlantiradi. Shu bois o'qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarini maqollar mazmunini tushinishga o'rganish, ularni nutqini o'stirishda tutgan o'rnini baholay bilish maqollar yuzasidan ko'nikma hosil qilishdan iborat.

Masalan:

“Dehqonning hazinasi -yer”

“Yozgi mehnat-qishki rohat”

“Mardni mehnat yengolmas”

“Mardning ishi mehnat ”

“Mehnat-baxt keltirar”

“Mehnat-yerda qolmas”

“Mehnat qilmay rohat ko'rmas”

“Urug' sepmay ekin unmas”.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ba'zan maqollarning ma'nosi qo'llanish holatlarini bilmaslik oqibatida ulardan foydalanishda qiynaladilar. Har bir maqolning o'ziga xos xususiyatlari ma'noisini yechib berish usullaridan foydalanish kerak. Matndagi maqollarning ma'no nozikliklarini anglash yoshlar tafakkurini kengaytiradi, estetik didni yuksaltiradi, ular nutqining chiroyli va ta'sirchan

bo'lishiga ko'maklashadi. Shu sababli barcha fan o'qituvchilari maqollardan unumli foydalansa samarasi yaxshi bo'ladi. Maqollarni boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mehnat darslarida qo'llashdan maqsad o'quvchilarga estetik tarbiya berish nutqiga jilo mantiqiy quvvat bag'ishlash, ularni fikrlashga o'rgatish, ularda o'qituvchi bilan erkin muomalaga kirishish madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Darslarda o'qituvchilarni estetik jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda har bir mavzuning xususiyatiga xos maqollardan unumli foydalanish muhim rol o'ynaydi. Maqollarga tez-tez murojaat etish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun keng istiqbollar ochadi. Har bir o'quvchi o'z so'z boyligini oshirib borish lozim u qanchalik ko'p so'z bo'lsa, o'z fikrini shuncha yaxshi va ravon tushuntira oladi. Masalan:

“Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq”.

”Mehnatsiz ish bitmas

Erinchoqning qo'li yetmas”.

“Mehnatsiz topilgan oshdan

Mehnatda topilgan tosh yaxshi”.

“Suvsiz hayot bo'lmas ”.

“Mehnatsiz rohat ”.

Maqollarni nutqda qo'llashning mana shunday namunalarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga sharhlab berish ularning diqqatini zarur misollarini izlab topishga, o'z nutqlarida ham maqollarni ishlatishga qiziqtirish, rag'batlantirish kerak. Masalan: ”Harakatining erta bo'lsa ,

Kuzda erta o'rasan

Mehnatingni halol qilsang

Huzurini ko'rasan ”.

O'quvchilarga estetik tarbiya berishda she'rlar, ham muhim ahamiyatga ega. Har bir she'r o'quvchilarga estetik zavq beradigan, ularni mehnatni sevishga uni qadriga yetishga undaydigan ibratli bo'lishi kerak. Ana shundagina ularning qalbiga

ona-Vatanga, uning adabiyotiga bo'lgan mehri va mehnati kundan-kunga oshaveradi.

“Mehnat darsi”

Mehnat darsi boshlanadi

Arra-tesha sozlanadi.

Tohir Ergash kelishib

Taxtalarni pardoqlar.

Tekkis qilib andoqlar.

“Hunarim”

Hamma narsa hunarda

Hunar bilan unarda

Bog' yaratdik cho'llarda

Sharaf –shonim hunarim.

Hunar o'rgan jon o'rtoq

Hunarga olam chanqoq

Hunar bilan dillar chog'

Kuch-madorim hunarim.

Xalqimizning “Bir yigitga qirq hunar ham oz” degan hikmatida olam-olam ma'no bor. Har bir hunarni o'rganganda naridan-beri qabilida ish yuritib emas, balki ilm va aqlni qo'shgan holda estetik did, mehr bilan, fidoyilik bilan o'rganish havasini keltiradigan darajada egallash lozim.

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarga estetik tarbiya berish, mehnatga bo'lgan muhabbatini oshirish maqsadida ota-bobolar merosidan amaliy san'at turlari bilan birgalikda xalq ertaklari, dostonlari, hikoyalaridan foydalanish o'rinlidir. Darslarda mehnat ta'limiga oid xalq dostonlaridan Alpomish, Go'ro'g'li kabilardan foydalanib ulardagi vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob-ahloq kabi sifatlarni o'rganish va o'quvchilar ongiga singdirishdan iborat.

Mehnat ta'limi jarayonida mutafakkirlar merosidan foydalanib o'tilgan darslar samarasi yuqori bo'lishi bilan birga, qiziqarli tashkil etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari estetik dunyoqarashlar, bilim doiralari kengayib boradi.

XV asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiy ham mehnatkash insonni ulug'laydi. Haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko'rsatadi. Yana Navoiy mehnatning insonni go'zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonni kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan: "Farhod va Shirin" dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir. Farhod Armaniston o'lkasiga qadam qo'yganda, o'z yurtida Qorandan o'rgangan tosh yo'nish hunarini ishlatib, og'ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O'z hunari mehnati tufayli bir tomondan xalqning og'ir mehnatini yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo'ladi. Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Navoiy mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarga estetik tarbiya berishda xalq amaliy san'ati ustalarining asarlaridan ham foydalanishimiz mumkin. O'quvchilarni nodir durdonalardan estetik zavq olishga, o'rnak olishga o'rgatishimiz kerak. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng an'anaviy hunarmandchilik, xalq amaliy san'ati ustalari merosidan foydalanish, ya'ni Respublika xalq ustalariga e'tibor har qachongidan ko'ra ortdi. "O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi" unvoni ta'sis etilib unga birinchi bo'lib zargar Fahriddin Dadamuhammedov sazovor bo'ldi. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining xalq amaliy san'ati merosidan foydalanishning yo'l yo'riqlarini to'g'ri o'rgata borishimiz darkor. Har yili Toshkentda Navro'z Mustaqillik bayramlariga bag'ishlangan xalq ustalari savdo ko'rgazmalari o'tkazilmoqda. Haykaltaroshlik san'ati bo'yicha Navoiy obrazini yaratish yurtimizni ko'plab haykaltaroshlarini qiziqtirib kelgan.

O'zbek xalq san'atida naqqoshlik san'atini o'rganish shu san'atning boshqa turlari singari juda muhim ahamiyatga ega. Chunki naqqoshlik san'ati

mamlakatimizda qadimdan juda keng rivojlangan va dunyoda shuhrat qozongan. Xalq amaliy san'atlariga boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlarini yanada oshirishning bir qator yo'llari mavjud, ya'ni mustaqil mashg'ulotlarda o'quvchilar bilan suhbatlar, muzokaralar, tanlovlar, uchrashuvlar o'tkazib borish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning amaliy san'at turlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim. Xalq amaliy san'ati nomoyondalarining hayoti va ijodi bo'yicha suhbatlar o'tkazish, filmlar namoyish etish, albomlar tayyorlash xalq amaliy san'atiga doir ijodiy ishlarni namoyish etish va ularni erishgan yutuqlari uchun rag'batlantirish.

- Amaliy san'atga suhbat va munozaralar o'tkazish;

- Amaliy san'at turlari bo'yicha muvaffaqiyatga erishgan o'quvchilarning ijodiy ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etib, tuman, shahar, viloyat ko'rgazmalariga tavsiya etish .

O'quvchilarning amaliy san'atga doir kitoblar o'qishi, xalq ustalari tajribasini chuqur o'rganish ularning xalq amaliy san'atining estetik mohiyatini anglab yetishiga ko'maklashadi. Yuksak mahorat bilan yaratilgan amaliy san'ati o'zining serjilo, o'zbekona milliy xususiyati bilan keng va nihoyatda boydir. Xalq amaliy san'ati o'zbek xalqining o'ziga xos milliy xususiyatlari o'z aksini topgan eng muhimi, amaliy san'atning nafasati, nozik ta'sirchan kuchi, tabiat inson va borliq uyg'unlashuvida mavjudlik va ruhiy musaffolikni saqlab qolishi bilan ahamiyatlidir. Buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning yuqorida to'xtalib o'tganimizdek, hayoti va ijodiy faoliyati, san'atidan buyuklik sifatleri, umumbashariy badiiy qadriyat sifatida asrlar osha e'zozlab kelinmoqda. Darhaqiqat, Kamoliddin Behzodning ijod namunalarini o'rganish barkamol avlod tarbiyasining muhim omili sifatida e'tiborlidir. Shu bois uni maktablarda, o'quvchilar saroylaridan tasviriy san'at, minyatura san'ati, amaliy san'at, san'atshunoslik to'garaklarida o'rganish ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Kamoliddin Behzodning hayoti va ijodini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati shunda nomoyon bo'ladiki, uning asarlarini o'rganish jarayonida o'quvchi yoshlarning badiiy estetik didlari o'sib

boradi, ularda milliy-tarixiy qadriyatlarga xurmat-extirom hissi, vatanparvarlik tuyg'ulari rivojlanadi. Shaxsiy ideal haqidagi tushunchalari shakllanadi. Badiiy-estetik merosni o'rganishga nisbatan qiziqish, rag'bat ortib boradi. Kamoliddin Behzod naqqosh va musavvir sifatida shakllandi. Bu haqida Naim Norqulov va Ilyos Nizomiddinovlar Kamoliddin Behzod, "O'z davrigacha bo'lgan tasviriy san'at sohasidagi erishilgan yutuqlarni mukammal egalladi va musavvirlikda yuksak insoniyat fikrlar va boshqa ilg'or g'oyalar bilan sug'orilgan hayotiy tasvirlar bilan tezda shuhrati ortib bordi",- deb yozadilar.

Kamoliddin Behzodning hayoti va ijodini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, balki uning badiiy merosi tarixiy-etnografik, ilmiy-madaniy, ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida turli tarixiy voqealar, bunyodkorlik ishlari, tabiat manzaralari, o'sha davr kishilarining faoliyati turli xususidagi holatlar o'zining ishonarli, hayotiy, haqqoniy tasviriy ifodasini topgan. Kamoliddin Behzodning badiiy-ijodiy qarashlari shundaki, u sharqona tasviriy san'atning va mehnat ta'limi soxalariga juda katta xissa qo'shdi, uni yangicha talqin, uslub hamda kompozitsion qonuniyatlar bilan boyitdi. Movorounnahr va Xurosonda XV asrdagi Renesans (Uyg'onish davri) vakillaridan biri, Navoiyning shogirdi, "Sharq Rafaeli", ulug' musavvir va miniatyurasoz Kamoliddin Behzoddir.

Nafaqat musulmon sharqi xalqlari, balki butun dunyo xalqlari san'at tarixida sezilarli iz qoldirgan, uning taraqqiyotiga o'zining barakali hissasini qo'shgan zabardast musavvir Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirotda kambag'al hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Behzod ota-onadan juda erta ajraldi. Uni bolaligidayoq Hirotning mashhur musavviri Amir Ruhillo (Mirak Naqqosh) o'z tarbiyasiga olib, tutingan otasi bo'ldi va Kamoliddinga tuz non berib, kiyim-bosh bilan ta'minlab, har tomonlama ilmiy qilib voyaga yetkazdi. Yosh Kamoliddin Mirak Naqqosh tarbiyasida, uning Hirotdagi Ngoristonida (san'at akademiyasida) naqqoshlik va miniatyurasozlik hunarining sir-asrorlarini o'rganadi.

Behzodning buyuk musavvir, naqqosh va miniatyurachi rassom bo'lib yetishuvining muhim omillaridan biri-bu uning XV asrning ikkinchi yarmida

mashhur shoir Alisher Navoiyning nazariga tushib, badiiy-g'oyaviy va estetik jihatdan ulug' mutafakkir va homiy dahosidan bahramand bo'lganligidir.

Kamoliddin Behzod uzoq va sermahsul hayot yo'lini bosib o'tdi. Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Ismoil Safaviy, Shoh Taxmasp Safaviylar hukmronlik qilgan turli –tuman bir-biriga bag'oyat ziddiyatli to'rt saltanatni ko'rdi. Temuriylar sulolasi poytaxti Hirotda va Safaviylar poytaxti Tabrizda yashab ,o'z davrining barcha azob- uqubatlarini o'z ko'zi bilan ko'rib mushohada qildi, o'z atrofini o'rab turgan ijtimoiy borliqdan olgan o'ta boy va rang barang taassurotlarini, ichki kechinmalarini, latif va nozik kayfiyatlarini o'zining sermahsul va go'zal ijodida zo'r mahorat hamda kuchli zavq va ishtiyoq bilan tasvirladi .

Behzod miniatyura san'ati tarixida maxsus maktab “Behzod maktabini” yaratdi. U real hayot xodisalari va tabiatni tasvirlash uslubi bo'yoqlardan foydalanish vositalari, rasmga olinayotgan voqealarni nozik chiziqlarda ifodalash yo'llari, inson kayfiyati va harakatini aks ettira bilishdagi ustaligi, rasm kompozitsiyasining kengligi va turli-tuman xodisalarini qamrab olabilishi, ajoyib estetik zavq uyg'otishi bilan miniatyura san'atini yangi bosqichga ko'tardi, uning tarixida yangi davr yaratdi. Behzod miniatyuralari uning tirikligidayoq va ayniqsa ,undan so'ng musulmon Sharqida va G'arbda ham bu san'atning eng oliy yutug'i deb tan olindi hamda eng qimmatli san'at asarlari sifatida mashhur bo'lib ketdi.

Behzod ijodi va merosini o'rganuvchi mutaxassislar fikricha, uning hozirgacha ma'lum bo'lgan sarlari taxminan o'ttizta rasm va rasmlar turkumidan iborat, ulardan eng mashhurlari quyidagilardir:

1. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”siga ishlangan miniatyuralar.
2. Husayn Boyqaroning majlislar tasvirlangan muraqqa'dagi 40 dan ortiq go'zal miniatyuralar .
3. Abdurahmon Jomiyning “Solomon va Ibsol” asariga ishlangan rasmlar.
4. Amir Xusrav Dehlaviyning “Xamsa”siga ishlangan 33 ta ajoyib miniatyura.
5. Sa'diyning “Bo'ston” asariga ishlangan go'zal rasmlar.

6. Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” asariga chizilgan noyob va benazir miniatyuralar.

7. Abdulloh Xotifiyning “Temurnoma” asariga chizilgan rasmlar.

8. Sa’diyning “Guliston” asariga ishlangan nafis miniatyuralar.

9. Abdurahmon Jomiy tasviri.

10. Husayn Bayqaro tasviri.

11. Shayboniyhon tasviri.

12. Shoh Taxmasp tasviri.

13. Shoir Abdulloh Xotifiy tasviri.

14. Tuyalar jangi.

15. Raqsi darvish (darvishlar raqsi) .

16. Samarqandda madrasa qurilishi.

Behzodning musavvirlik maktabi va mahorati Temuriylar davri madaniyati tarixiga balki jahon rasm, bag’ishlangan barcha tadqiqotlarda o’z davri san’atining ajoyib yutug’i sifatida alohida ta’kidlab o’tiladi. Behzod nafaqat Sharq xalqlari musavvirchiligi tarixida o’chmas iz qoldirgan, o’zining ajoyib va qimmatbaho miniatyura durdonalari bilan butun dunyo madaniyati tarixida salmoqli o’rin olgan buyuk va zabardast san’atkordir¹.

Ulug’ mutafakkirlar Alisher Navoiy, Abi Ali Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmud Qoshg’ariy, Amir Temur, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug’bek, Yusuf Xos Hojib va boshqa noyob durdonalar yaratgan olimlar qoldirgan me’roslar tarbiya o’chog’i bo’lib xizmat qilib kelmoqda. Oz zamonasining yetuk namoyondalarining barcha ishlari, nodir asarlari, san’atlari boshlang’ich sinf o’quvchilarining har tamonlama estetik rivojlanishida xizmat qilib kelmoqda.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga estetik tarbiya berishda ulug’ mutafakkirlarimiz qoldirgan nodir asarlar, xalq og’zaki namunalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nodir asarlar, namunalar o’quvchi ta’lim-tarbiyasida, ularni xar

¹ Ma’naviyat yulduzlari Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, adiblar).M.M.Xayrullayev.- T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr .1999.-228-232-betlar.

tamonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlarida, hayotda o'z o'rinlarini topishlarida, kasb egallashlarida bir turtki bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga estetik tarbiya berish jarayonida mutafakkirlar merosidan foydalanish, tarixni bilish, tarixiy asarlarni o'rgatish yaxshi samara beradi. Mutafakkirlar me'roslaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilariga estetik tarbiya olish bilan birgalikda, kasb-hunar egallashlari uchun ham zamin yaratadi. O'quvchilarni mutafakkirlarimiz yaratgan nodir durdonalardan estetik zavq va bahra olishga, ularni izidan borishga undashimiz kerak.

II. bob. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash

2.1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash metodikasi

Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni estetik tarbiyasini shakllantirishda turli usullar, interaktiv metodlardan keng foydalaniladi.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda, o'quvchilarga estetik tarbiya berishda qo'llaniladigan asosiy shakl va metodlar tizimi quyidagilar:

Og'zaki bayon qilish.

Tushuntirish va hikoya qilish.

Suhbat.

Mashqlar.

Amaliy ishlar.

Labaratoriya ishlari.

Ekskursiya.

Kitob bilan ishlash.

Texnik vositalar.

Mustaqil ishlar.

Uchrashuvlar.

Ko'rgazmalar.

Sayohatlar.

Yangi pedagogik texnologiyalar.

Biz bu terminlarning, ya'ni bu shakl-metodlarning har biriga estetik jihatdan yondoshib, uning zamirida estetika yotibdi deya olamiz. Chunki, bu shakl-metodlar estetika va estetik tarbiya bilan uzviy, chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarga estetik tarbiya berishda, dunyoqarashini shakllantirishda, mehnat ta'limi va tarbiyasiga tayyorlashda yuqoridagi usul, shakl va metodlardan samarali foydalanilsa, o'qituvchi o'quvchilarning mehnat ta'limi va tarbiyasining malaka va ko'nikmalarini egallashlariga va mehnatga tayyorlash to'g'ri tarbiyalansa, haqiqiy mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlar shakllanadi, o'quvchilarning estetik didi o'sadi.

Og'zaki bayon qilish estetikasi.

Bu usul ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

Monologik bayon qilish, bunda faqat o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo'l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaaj ko'rinishida bo'ladi.

Dialogik bayon bo'lib bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro suhbatidir. Suhbat orqali o'quvchilarning nutqi o'sadi, estetik dunyoqarashi kengayadi, har bir narsaga o'zining estetik qarashi bilan yondashishga harakat qiladilar.

Tushuntirish va hikoya qilish estetikasi.

Bu usul materialning jonli va obrazli bayon qilishdi. Bu holda yangi bilimni o'qituvchining o'zi beradi. Bazan suhbat davomida o'quvchilarning qanchalik o'zlashtirayotganliklarini bilish maqsadida ularga savollar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Hikoya agar bajarilgan ishlar, rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni ko'rsatib bajarilsa, anchagina tushunarliroq bo'ladi. O'quvchilar rasmlarni ko'rish, anglash, kuzatish orqali ularning ijodiy faolligi oshadi, estetik dunyoqarashi kengayadi, go'zallik, nafosatni his etadi.

Bu o'rinda tushuntirayotganda ko'rsat va tushuntir degan qoida bajariladi. Yangi materialni bayon qilishda o'quvchilarning estetik qarashlarini rivojlantirishga, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishga alohida ahamiyat berish kerak. Bundan tashqari

o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Tushuntirishda bo'sh o'zlashtiruvchilarga alohida e'tibor berish lozim. Hikoya qilish jarayonida ularning idroklarini faollashtirish maqsadida tushuntirilayotgan material yuzasidan ularga bir- ikkita savol berish mumkin. Bu metod o'quvchilarga axloqiy, estetik tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega.

Suhbat estetikasi.

Suhbat turli o'quv maqsadlarida, ya'ni yangi mavzu materialini bayon qilish, bilimlarni rejalashtirish va chuqurlashtirish uchun qo'llanishi mumkin hamda takrorlash jarayonida, o'quvchilarni bilimini tekshirish uchun suhbat metodidan foydalaniladi.

O'quvchilarni ulardagi qiziquvchanlikni qo'zg'ab, savollar berishga undash foydalidir. Umumlashtiruvchi suhbat yaxshi samara beradi, o'quvchilarning har tomonlama dunyoqarashini kengaytiradi, estetik didini rivojlantiradi.

Suhbat xuddi hikoya singari ma'lum talablarga javob berishi kerak, ya'ni: savollar shunday shakllantirilishi lozimki, ular o'quvchilar tafakkurini faollashtirsin, estetik tarbiyasini oshirsin, ularni aniq va ishonarli javobni izlashga undasin;

- mavzuni ochib berishda izchillik bo'lishi uchun suhbatning rejasi oldindan tuzib qo'yilgan savollari albatta bo'lishi kerak;
- o'quvchilarning diqqati qaysi dalil va xulosalarga qaratilishi oldindan belgilanishi lozim.
- Suhbat o'quv materialining chuqur va ongli egallanishiga yordam berishi;
- o'quvchilarda bo'lajak amaliy ishni ongli rejalashtirish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda vosita xizmatini o'tashi;
- egallangan bilimlarni amalda qo'llash malakalarini singdirishga yordam berishi, o'quvchilarning nutqini, ijodkorligini o'stirishi, estetik tarbiyaga yo'naltirilishi lozim.

Har bir suhbat darsi o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga estetik didini oshirishga qaratilmog'i kerak.

Suhbat o'quv materialining chuqur va ongli egallanishiga yordam berishi; o'quvchilarga estetik tarbiya berishi; o'quvchilarda bo'lajak amaliy ishni ongli rejalashtirish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda vosita xizmatini o'tashi; egallangan bilimlarni amalda qo'llash malakalarini singdirishga yordam berishi kerak .

Mashqlar estetikasi.

Mashqlar olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularga estetik tarbiya berish maqsadida o'quvchilarga turli mashqlar beradi, bunda u har bir o'quvchini estetik yondashishini nazarda tutib, ijodiy xarakterdagi ishlarni tashkil etib ko'proq mustaqillik talab etuvchi mashqlarni beradi.

Mashqlar ommaviy va yakka tartibda bo'ladi, ya'ni butun guruhda bir xil ishni va barcha o'quvchilar turli ishlarni bajarishi mumkin. Mashqlar bajarish jarayonida diqqat-e'tibor o'quvchilarning ijodiy faolligiga, estetik yondashishiga qaratilmog'i lozim. Mashqlarning xarakterli xususiyati ayni bir harakatning takrorlanishi bo'lgani uchun o'quvchilarda bajarilayotgan ishga nisbatan qiziqishini saqlash talab etiladi.

Mashqlar yakunida ishlarni tahlil qilish, eng yaxshi ishlarning tahliliga tayanib, kim qanday natijalarga erishganligini ko'rsatish lozim. Ayni bir vaqtda kamchiliklar ustida ham to'xtash va va ishning sifatini yaxshilash yoki bajarish tezligini oshirish uchun nimalar qilish kerakligini tushuntirish lozim. Bu metod ya'ni mashqlar bajarish orqali o'quvchilar har bir yasayotgan ijodiy ishlariga estetik yondashishlari jarayonida ularga estetik tarbiya ham berib boriladi.

Amaliy ishlarestetikasi.

Amaliy ishlar o'quvchilarga egallangan bilimlarni amalda qo'llashni o'rgatishga yordam beradi. Amaliy ishlarni chiroyli bajarishini rejasini o'quvchilarning o'zlari mustaqil tuzishlari katta tarbiyaviy va estetik ahamiyatga egadir. Ko'rgazmali qurollarni o'quvchilar tomonidan bajarilishi ham amaliy ishlarga

kirtish mumkin. Bu egallangan bilimlarni mustahkamlashga, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga, estetik didini rivojlantirishga yordam beradi.

Musmtamqil ishlar estetikasi: O'quvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig'i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajarilgan ishlardir. Bu o'rinda o'quvchilar o'zlarining intilishlarini qo'llab estetik, aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu formada ifodalab, topshiriqlarda qo'yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar.

Dastlabki darslardan boshlab ishni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilar qo'l mehnatini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy malakalar o'rtasida uzviy aloqada bo'lishi kerakligini his etsinlar, bajarayotgan ishlari o'quvchilarga estetik zavq bag'ishlasin. O'quvchilarda malakani shakllantirish ongli faoliyatdan ajralgan holda bo'lmasligi kerak.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o'quvchilar o'z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadilar. Mustaqil ishlar jarayonida ham o'quvchilarga estetik tarbiya berib boriladi.

Mustaqil ishlarning keng qo'llanilishi o'quvchilarda ishga ijodiy va estetik did bilan yondashishni, ulardagi bilishga qiziqishlarini, olingan bilimlarini amalda qo'llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

Ekskursiya estetikasi.

Ekskursiya-bilishga qiziqishni avj oldirishda, o'quvchilarga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ekskursiya o'quvchilarga estetik tarbiya berishda katta ahamiyatga ega, chunki tabiat qo'yniga, muzeylarga, turli tarixiy joylarga ekskursiyaga borilgan vaqtda o'quvchilar tabiatdagi go'zallikni, nafosatni his etadilar, har bir ishda estetik qarash muhim ekanligini anglab yetadilar. Ishlab chiqarish ob'yektlariga ekskursiyalarga borgan vaqtda ishlab chiqarish vakillari ham ishtirok etsa u yanada samaraliroq bo'ladi. Ekskursiya jarayonida o'quvchilar ishlab chiqarish

texnologiyasi, etikasi, estetikasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o'tkazishdan oldin o'quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo'yish, ekskursiyadan so'ng savol-javob o'tkazish orqali ham o'quvchilarga estetik tarbiya berib boriladi. Masalan, to'qimachilik kombinatiga ekskursiya uyushtirishdan oldin o'quvchilarga guruhlar bo'yicha topshiriqlar berish mumkin. Guruhlardan biri ekskursiyadan so'ng albomni jihozlaydi, jihozlash jarayonida ishga estetik yondashish muhim ahamiyat kasb etadi, so'ng yigiruv sexining eng yaxshi ishchilarini yozib chiqadi, rasmlar chizadi, ikkinchi guruh to'qishning texnologik jarayonini yozadi, uchinchi guruh ishni bo'yash bo'limida olib boradi. Rasmlar chizish, bo'yash jarayonida ranglarni tanlash, go'zallikni nafosatni boricha aks ettirish, bajarayotgan har bir ishlariga estetik yondashish orqali o'quvchilarga estetik tarbiya singdirib boriladi.

Kitob bilan ishlash estetikasi.

Hozirgi kunda mehnat ta'limi bo'yicha 1,2,3,4- sinflarga mo'ljallangan "Mehnat " darslari asosida o'qituvchidan o'quvchilarni kitob bilan ishlashga o'rgatish talab qilinadi. Bu maqsadda quyidagi kitoblardan: Kuznetsovning "1-3- sinflarda qog'oz va karton bilan ishlash", "Boshlang'ich sinflarda texnik modellash", "1-3- sinflarda mehnat fani bo'yicha albom", "Boshlang'ich sinflarda tabiiy materiallar bilan ishlash" kabilardan foydalanish mumkin. Kitob bilan ishlash jarayonida undagi rasmlarni bo'yashda, rasmlarni qirqishda, rasmlarga qarab ijodiy ishlarni tayyorlashda o'quvchilarga estetik tarbiya berib boriladi.

O'quvchilarni kitob bilan tanishtirishdan oldin o'qituvchining o'zi bu kitobni puxta o'rganib chiqishi, undan nimalarni tavsiya etish mumkinligini belgilab chiqishi lozim. O'quvchilarni kitob bilan mustaqil ishlashga asta-sekin o'rgatib borish kerak. Birinchi navbatda o'quvchilar kitob bilan mustaqil ishlayotgan paytlarida bajarayotgan har bir ijodiy ishlarida estetik yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ularga singdirib borsak, o'quvchilarga har tomonlama yetuk, estetik tarbiya berish borasida yuqori natijalarga erishamiz.

Texnik vositalar

Texnik vositalar qo'l mehnati mashg'ulotlarida ayrim bilimlarni o'rganish, kasblar, materiallarni tayyorlash texnologiyasi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini tanishtirish, o'quvchilarni mustaqil ishlashlari uchun qulaylik yaratish, ularning ijodkorligi va estetik tarbiyasini yanada rivojlantirish munosabati bilan qo'laniladi.

Bilimlarni egallash, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarning estetik didini o'stirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq. Mehnat o'qituvchisi dasturda nazarda tutilgan mehnatning barcha turlarini yaxshi bilishi kerak. Faqat ijodiy fikr yuritib ishlaydigan, estetik dunyoqarashi keng, o'z ishida o'qitishning turli usullari bilan birga, pedagogik texnologiyalardan va interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etgan o'qituvchigina jamiyatning maktab oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda yordam berishi mumkin.

Har bir o'quvchidagi qiziqish turlichadir, shunday ekan o'qitishda yakka tartibda yondashishni oshirish kerak bo'ladi. O'quvchilarga estetik tarbiya berishda yakka tartibda yondashish katta ahamiyatga ega, chunki o'quvchilar ijodiy ishlarini o'zlari mustaqil bajarish jarayonida har bir ishni o'zlarining estetik qarashlaridan kelib chiqib, yuksak did, chiroyli nafosat bilan, san'at darajasida yaratishga harakat qildilar.

O'qituvchining nutq madaniyati, uning o'quvchilar tushuna oladigan bo'lishi, o'quvchilar tushuna oladigan bo'lishi, o'quvchilarga estetik zavq bag'ishlashi lozim. O'qituvchi dars o'tishi jarayonida yuqoridagi talablarga amal qilsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi.

2.2. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida turli shakl va metodlar orqali estetik tarbiya berish

Metod-yunoncha "method"- so'zidan olingan bo'lib, usul, yo'l degan ma'nolarni anglatadi. Estetik tarbiya-o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi

go`zallikni idrok qilish hamda to`g`ri tushunishga o`rgatish, ularning badiiy didini o`stirish, go`zallikka muhabbat uyg`otish va xayotiga go`zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Tarbiya nazariyasida ikki xil tushuncha mavjud: estetika va badiiy tarbiya tushunchalari.

Estetik tarbiya ancha keng ma`noga ega bo`lib, tabiat va jamiyat, mehnatdagi go`zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga, shuningdek estetik faoliyatga, voqelikni go`zallik qonun-qoidalari asosida o`zgartirishga qodir shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Estetik rivojlantirish- bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli darajalariga egadir. U shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog`liq bo`lib, turli yo`llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi.

U jamiyat estetik madaniyatini turli ma`naviy va moddiy ko`rinishlarda tushunib olishni ta`minlaydi. Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning estetik madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to`plangan moddiy va ma`naviy qadriyatlari majmui tushuniladi. O`quvchi shaxsining estetik madaniyati uning madaniy merosini faol, ijodiy o`zlashtirishi natijasida hosil bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari estetik ong, ehtiyojlar, munosabatlar va estetik faoliyatlardir. Estetik ong boshlang`ich sinf o`quvchilarida, estetik idrok, bilim, mulohaza, baxs, estetik idealni qamrab oladi.

Estetik ehtiyojlar va munosabatlar esa boshlang`ich sinf o`quvchilarida, eng avvalo shaxsning estetik qiziqishlari, didi, estetik xissiyotlarida ifodalanadi. Estetik faoliyat boshlang`ich sinf o`quvchilarida ko`nikma, malaka, ijodiy qobiliyatlar mavjudligi bilan tasvirlanadi. Estetik ong ijtimoiy voqelik, tabiat, san`at bilan bevosita muloqot jarayonida shakllanadigan g`oyalar, nazariyalar, qarashlar, badiiy ta`lim va tarbiya natijasida shakllanadi, estetik ongning asosini estetik idrok tashqil qiladi.

Estetik idrok bu atrof voqelikdagi buyumlar, hodisalarning estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirish, idrok etilgan narsalarni shaxsda mavjud bo'lgan xissiy va aqliy narsalarning o'zaro aloqasi bilan ifodalanadigan estetik mezonlar bilan qiyoslash jarayonidir. Estetik idrok go'zallik bilan uchrashganda yuzaga keladi va aniq maqsadga qaratilganligi bilan izohlanadi. To'laqonli estetik idrok estetik tushunchalar va estetik mulohazalarni shakllantirish bilan birgalikda sodir bo'ladi.

Pedagogikada estetik tarbiya vazifalarini belgilashda umumiy tarbiya maqsadlari va o'quvchilarning yosh xususiyatlari alohida hisobga olinadi. Estetik tarbiya vazifalarini yo'nalishiga ko'ra shartli ravishda to'rt guruhga birlashtiriladi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik moyillik: estetik hayajon, estetik munosabat va qiziqishni tarkib toptirish, ularda estetik moyillik atrof-voqelik va san'at asarlarining estetik obrazlari yig'indisining to'plashni, ularga xissiy hozirjavob bo'lishni rivojlantirish; estetik xis-tuyg'ular, ehtiyoj, did va munosabatlarni rivojlantirish kiradi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik ongni shakllantirish esa estetik ong qirralari(tasavvur va bilimlar hajmi, estetik mulohaza va baholash)ni tarkib toptirishdan iboratdir.

Estetik ong tarkib topishi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida voqelik va san'atdagi go'zallik yoki xunuklik, kulguli yoki fojialilikni to'g'ri aniqlashning xilma-xil mezonlarini aniqlash, ya'ni buyumlarning xususiyati va sifatlarini: shakli, rangi, tovushlari; hissiy aniqlash: shodlik, qayg'u, xafalik, ajablanish, alam; san'atshunoslik mezonini ya'ni ayrim musavvir, bastakorlarning ismlari va hayoti, faoliyatini bilish; estetik mezon-chiroyli, xunuk, kulguli, qahramonlik kabilarni ajrata bilishni o'rganadilar. Ularda tevarak-atrofga nisbatan to'g'ri munosabat va go'zallikni tushunish shakllanadi.

3. Estetik faoliyatga o'rgatish bu boshlang'ich sinf o'quvchilarida vazifalarini amalga oshirilishi jarayonida pedagog o'quvchilarni faol estetik va badiiy faoliyatga jalb qiladi, ularda estetik va badiiy idrokni rivojlantiradi, badiiy ijrochilik

faoliyatining ko`nikma va malakalarini shakllantiradi, go`zallikni turmushga, tabiatga, o`z qiyofasiga kiritish ko`nikma va malakalarini tarbiyalaydi.

4. Estetik va badiiy- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasini bajarish natijasida o`qituvchi har bir bolada umumiy va maxsus badiiy- ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishini, hissiy hozirjavoblik qobiliyatini hamda ijodiy hayolni rivojlantiradi.

Estetik tarbiya vazifalarini to`la-to`kis bajarilishi o`quvchilarda qator ijobiy sifatlarni: tashabbuskorlik, ijodkorlik, oldindan ko`ra bilish, intiluvchanlik, orzu qila bilishlik kabilarni shakllantiradi.

Boshlang`ich sinf mehnat ta`limida o`quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, estetik tarbiya berish, ijodiy faolliklarini oshirish maqsadida o`qitishning turli xil shakl va metodlaridan foydalaniladi. Ta`lim metodlarini tanlash, avvalo, o`quv materialining va o`quv vazifalarining xarakteriga bog`liq. Mehnat ta`limiga doir o`quv vazifalari maktabdagi boshqa fanlarning o`quv vazifalari singari o`quvchilarning estetik didini o`stirish, ularga yangi bilimlar berish, ko`nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilimlarni amalda qo`llash va x .k .lardan iboratdir.

Bilim asosan bir xilligi uchun ta`lim metodlari ham deyarli bir xil bo`ladi, ammo hammasining vazifasi o`quvchilarga estetik tarbiya berish va bilim salohiyatini yuksaltirishga qaratiladi. Boshlang`ich sinflarda o`quvchilarda mehnat ta`limidan ko`nikma va malakalarni shakllantirish, ularga estetik tarbiya berish mehnat ta`lim metodikasida juda muhim o`rin tutadi. Mehnat ta`limida foydalaniladigan metodlardan biri mantiqli o`qitish metodi bo`lib, uning o`ziga xos xususiyati shundaki, unda o`qitish jarayoni o`qituvchining mehnat usullarini namoyish qilish va o`quvchilarni unga taqlid qilish asosida tashkil topadi va albatta birinchi navbatda o`quvchilarning estetik qarashlarini yuksaltirishga qaratiladi .

Asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1. Topshiriqlarni aniqlash uni maqsadi va bajarishini tushuntirish.
2. O`quvchilarda zarur bilimlarni mavjud bo`lishi.

3. Ta'lim metod va usullarini shakllantirayotgan ko'nikma va malakalarni xususiyatlarga moslash.

4. O'quvchilarni o'z vaqtida baholash, o'quvchilarni baholash natijalaridan xabardorligi.

5. O'quvchilar faoliyatini aktiv xarakteri.

Boshlang'ich sinfda ko'p hollarda o'quvchilarning estetik qarashlarini va ijodkorligini faollashtirish maqsadida ko'rgazmali metodi ham foydalaniladi.

Mehnat ta'limida o'quvchilarga estetik tarbiya berish va ularning faolligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan keng foydalaniladi. "Texnologiya" so'zi 1872-yilda fanga kirib kelgan va yunoncha texnos – hunar, san'at so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "Hunar" fani yoki "hunar san'ati haqidagi fan" ma'nolarini anglatadi. Pedagogik texnologiya -ta'lim samaradorligini oshiruvchi, o'quvchilarni mustaqil ishlashini ta'minlovchi usullar tizimidir. Bu usullar o'quvchilarga estetik tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali darslarning qiziqarli, mazmunli va maqsadli o'tishiga ko'maklashish bilan birga o'quvchilarning ijodkorligi, estetik dunyoqarashi ham shakllantirib boriladi. O'quvchilarning bilimli, faol va intellektual salohiyatli bo'lishlarida ham muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari yoshlarning fan-texnikani jo'shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlarini faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o'qitishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatini, estetik dunyoqarashini, egallagan bilimlarini amalda qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarga ijodga extiyoj uyg'otish, estetik didini yuksaltirish, har qanday faoliyatga mustaqil va ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirishga, ijodiy masalalarini mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi.

Mehnat ta'limiga o'rgatish va o'quvchilarning estetik tarbiyasini shakllantirishda ham zamonaviy pedagogika ishlarini to'g'ri tashkil etish va uning

usullariga qo'yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarning usullari bo'lib, ular yordamida o'qituvchi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga, o'quvchilarni har tomonlama, yani etik, estetik, manan rivojlanishlariga xizmat qiladi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, xatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat-e'tiborlarini susaymasligiga, fikrlarini jamlangan bo'lishiga, ularning chambarchasliklariga yo'llangan bo'lishi, o'quvchilarning estetik didini o'stirishga qaratilgan bo'lmog'i lozim. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarga estetik va mehnat tarbiyasini berishda turli shakl va metodlardan samarali foydalanishi kerak. Mehnat ta'limi bilimlarini egallash, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarning estetik didini rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq. Mehnat ta'limini amaliy mehnat faoliyati bilan birlashtirish va o'quvchilarning ilmiy bilimlarini chuqur o'zlashtirishni ta'minlashda va o'quvchilarga estetik tarbiya berishda turli shakl va metodlardan keng foydalaniladi. Nazariy materialni tushuntirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini va tajribasiga, estetik dunyoqarashiga suyanadi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha mehnatga oid harakatlar nazariy bilimlarni bilishga tayanadi. Ko'r-ko'rona taxminiy yo'l bilan egallangan ko'nikma va malaka tor ma'noda bo'lib, puxta bo'la olmaydi. Amaliy topshiriqlarni tanlash mehnat tayyorgarligini nazariy va amaliy saviyasini ko'tarish vazifalariga bo'ysindirilishi kerak. O'quvchilarga berilgan topshiriqlar ularni ijodiy izlantirish, estetik dunyoqarashini kengaytirish, ta'lim olish va adabiyotlar bilan ishlash malakasini shakllantirishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda ish materiallarining mazmuni, hajmi usullari o'quvchilarning tayyorgarlik bosqichlariga mos kelishi, estetik qarashlariga muvofiq bo'lishi lozim. O'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishda faqat soddalashtirish yo'li bilan borish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bunday yo'l bilan

borish o'quvchilarning aqliy rivojlanishini ta'minlay olmaydi. Har bir mavzuni o'rganishda soddadan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiqdir.

Ko'pgina o'qituvchilar o'qitishning turli shakl va metodlarini qo'llab, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, o'quvchilarga estetik ta'sir etmoqdalar va yaxshi o'zlashtirish natijalariga erishmoqdalar. Shu orqali o'quvchilarga bilimga muhabbat va qiziqishlarini singdirmoqdalar. Bunday o'qituvchilar qo'l mehnatini o'rgatishda o'quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko'nikmalarini o'rgatish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyat va bilishga qiziqishini, o'quvchilarning estetik didini, ijodiy faolliklarini o'stirishga yordam bermoqdalar.

Shunday qilib, o'qituvchi mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'qitishning turli shakl va metodlaridan foydalanib, o'quvchilarni tikish va to'qish usullari bilan tanishtirib borsa, birinchidan ularning badiiy – estetik tarbiyasi amalga oshirilsa, ikkinchi tomondan qiz bolalarni shu kasbga qiziqtirib, kasbga yo'naltiriladi.

2.3. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida turli materiallar bilan ishlash jarayonida estetik tarbiya.

Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi jarayonida turli materiallar bilan ishlash o'quvchilarning estetik va mantiqiy fikrlash va shu bilan birga turli tabiiy va chiqindi materiallardan nimalar yasash mumkinligi haqida tasavvur hosil qiladilar.

Turli materiallarga quyidagilar kiradi:

1. Qog'oz va karton.
2. Gazlama.
3. Tuxum po'chog'i.
4. Yong'oq po'chog'i.
5. Urug'lar.
6. Qum,tosh.
7. Shishasiniqlar
8. Tugma
9. Loy

10. Yog'och
11. Sim
12. Barglar
13. Somon ,poxol
14. Bo'sh qutilar
15. Daraxt shoxlari
16. Plastilin
17. Munchoqlar
18. Chig'anoqlar
19. Rangli toshlar.
20. O't o'lanlar.

Turli materiallar ham 2 guruhga bo'linadi:

1. Tabiiy materiallar.
2. Chiqindi materiallar.

Turli tabiiy materiallarga ishlov berish ulardan nimalar yasay olish, tahlil qilish bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham shakllantirib boradi, shuni ham alohida diqqat markazida tutish kerak kishlash jarayonida sanitariya -gigiyena qoidalariga, texnika xavfsizligiga rioya qilibgina qolmay, tejamkorlikka ham alohida e'tibor berishimiz zarur. Turli materiallar bilan ishlashda o'quvchilar o'zlari yasaydigan narsalarni estetik did bilan yondashib mustaqil fikrlashib yasaydilar.

O'quvchilarga turli ashyolardan narsalar yasashni o'rgatar ekanmiz, asboblarni tog'ri ishlatish-sindirmaslik, buzmaslik yo'llarini uqtiramiz, ish joyini toza, tartibli saqlash ham takidlanadi, ya'ni o'quvchilarda estetik did shakllanadi. Biz bolalarni kichikligidan boshlab nafaqat mehnatga, balki ularni tejamkirlikka ham o'rgatib boramiz. Masalan, xonadonlarda uchraydigan keraksiz ashyolardan biron-bir buyum yasash bolalarda ijodkorlikni, estetik didni shakllantiradi. Keraksiz va turli narsalardan chiroyli va nafis narsalar yasashga o'rgatiladi.

Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq olsa bo'ladigan narsalar yasashi bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli tabiat materiallarini topish, saqlash, ishlov berish yo'llarini qo'llash bolalarni tabiat bilan oshno qiladi.

Chiqindi meteriallardan turli-tuman o'yinchoqlar yasaydilar. Bunda o'quvchilarning tasavvurlari, estetik didlari, ijodiy qobiliyatlarini, kerakli o'yinchoqlarning na'munasini oldindan "ko'ra olish" xususiyatlari rivojlangan bo'lishi talab etiladi. Chiqindi materiallardan o'quvchilar bo'ri, quyon, sher, mushuk, ot, transport vositalari, mebellar va shu kabi bir qancha o'yinchoqlarni tayyorlashi mumkin. O'quvchilar turli materiallar bilan ishlashda ko'rgazmalardan ham foydalanishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnat ta'limi bo'yicha ishlarni amalga oshirayotganda o'quvchilar u yoki bu ishni bajarishi natijasida qanday ko'nikma, bilim va malakalarini egallashlarini aniq bilishi kerak. Aniq bilgan holdagina o'qituvchi sinf uchun vaqtida zarur bo'lgan buyumlarni bemalol tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda muhimi o'quvchilarni mazkur ko'nikma va bilim malakalarini egallab olishdan iborat.

Barcha boshlang'ich sinflarda ish turlari quyidagilarga bo'linadi:

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
 2. Gazlamalar bilan ishlash.
 3. Turli tabiiy materiallar bilan ishlash.
 4. Texnik modellashtirish.
 5. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish.
 6. Qishloq xo'jalik mehnati.
- A. O'quv-tajriba uchastkalarida ishlash.
- B. Sinf xonasidagi gullar.

Tarbiyada muhitning o'rni beqiyosligidan kelib chiqib, biz mehnatning tarbiyadagi o'rnini o'quvchiga asosan yoshlik davri misolida ko'rsatib o'z fikrimni bildirmoqchiman. O'quvchilarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, uning mehnatsevarlik xususiyatlarini shakllantirish bu nafaqat jamiyat uchun yaxshi yoki

yomon fuqaroni tarbiyalash, balki uning kelajak hayotiga zamin yaratish demakdir. O'quvchilarni aniq qilib o'yinchoqlarning butunligi, ularning saqlanadigan va bola o'yinchoqlarni o'ynaydigan joyda tartibli bo'lishini ta'minlash lozimligini uqtirish mumkin. Bu orqali ularda estetik tarbiya shakllanadi.

Mazkur topshiriqni umumiy ko'rinishda toza bo'lishi kerak, o'yinchoqlar sochilib yotmasligi lozim, o'yinchoqlar chang bo'lmasligi kabi usulda berish orqali o'quvchilarni estetik didini o'stiramiz. O'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda, estetik didini shakllantirishda tabiiy materiallarni o'rni juda katta. Tabiiy materiallarni to'plash o'quvchini o'qituvchi rahbarligida sayohatlari vaqtida amalga oshiriladi. Sayohatdan oldin ularga qilinadigan ish namunasini ko'rsatiladi. O'quvchilar uni diqqat bilan kuzatib, yasaladigan o'yinchoq ob'yekt yangi bog' daraxtzor ekinzorlarining zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga jalb etiladi. o'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar tuziladi. Bu jarayonda o'quvchilarning e'tibori o'simlikning shakli, ularning navlariga qaratiladi. O'simliklarda sodir bo'ladigan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli shu bilan birga qiziqarli tarzda bayon etib beriladi. Shundan so'ng atrofdagi qushlar ,jonivorlar, ninachi, chumoli singari hashoratlar, ularning xususiyatlari, odoblari haqida hikoya qilinadi. Shunday qilib ham o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda ,ham estetik tarbiya berishda turli materiallar bilan ishlashning o'rni qanday ekanligini bilib oladilar va yana o'quvchilar daftarlariga zarur bo'lgan o'simliklarning yangi shaklini bir-biri bilan qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o'stirishga yordam beradi. Sayohat davomida o'quvchilar insonning yaratuvchanlik mehnati hayotda qanday asqotishini tushunib yetishlari kerak, so'ng kuzatuvlarga yakun yasalib, egallangan bilimlar umumlashtiriladi.

Bulardan tashqari, o'quvchilarga qushlar va tabiatdagi o'simliklarning rasmlari ko'rsatiladi, ularning tanasi, bargi, qanotlarining shakli, rangi qandayligiga alohida e'tibor tortiladi. Bularning bari o'quvchilarning estetik qarashlarini shakllantiradi.

Qog'ozdan mozayka usulida turli buyumlar shaklini yasash jarayonida o'quvchilarning estetik didini oshirish kabi hislatlarni singdirishga e'tibor qaratish, ranglarni farqini ajrata bilish lozim bo'ladi. Ma'lumki o'quvchilar estetik didni, ijodkorligini oshirishda mehnat darslari jarayonida o'quvchilar narsalar yasash, ularga ishlov berish kabi ish usullarini o'zlashtiradilar. Qog'oz va karton ,gazlama tolali materiallar bilan ishlash, badiiy ko'rish-yasash, texnik modellashtirish vazifalarini bajarish ajdodlarimiz mehnati mahsulotlariga hurmat bilan qarash va shu orqali ularda vatanparvarlik hislarini uyg'otish omillaridan bo'ladi. O'yinchoqlarni yasay olish malakasi ham turli materiallar bilan ishlash malakalari ham rivojlanib boradi. Turli materiallardan bajarilgan ishni baholashda o'qituvchi o'quvchilarning ijodkorligi, estetik didi, materiallardan mohirona foydalana olishlariga a'lohida e'tibor beradi. O'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda, estetik dunyoqarashini shakllantirishda turli materiallar bilan ishlashda oddiydan murakkabga yo'naltirilsa ,yosh xususiyatlariga mos ravishda olib borilsagina o'quvchilarning estetik did yanada shakllanib boradi.

1-sinf o'quvchilarining estetik tarbiyasini oshirishda tabiiy material bilan ishlashning ayrim kasblarda ishlatiladigan asboblarning nomlarini va nima maqsadda ishlatilishini bilish, yog'och materiallar olinadigan daraxtlarni tanish ,ularning nomlarini bilish, ayrim gazlama turlari nomi ,xususiyatlari ,ulardan tayyorlanadigan buyumlarning bilish,pazandalikda ishlatiladigan mahsulotlarning turlari, nomlari, nima maqsadda ishlatilishini bilish,qandolatchilikda ishlatiladigan xom- ashyolar va tayyorlanadigan mahsulotlarni bilish, qurilish sohasida ishlatiladigan materiallar nomi ayrim xususiyatlari va kartondan eng oddiy shakldagi buyumlarni qirqib tayyorlash, ularning rasmini chizish, bo'yash hamda eng oddiy naqshlar bilan bezash ,tugma qadash, eng oddiy choklarni tikish, gazlamalarni qirqishni bilishlari lozim. Shu qatori 2-sinfda turli materiallar bilan ishlashda ayrim kasblar mahsulotlari yoki tayyorlanadigan buyumlar eskizlarini chizib oddiy naqshlar chizish mumkin. Naqshlar chizish orqali o'quvchilarning estetik didi rivojlanadi, go'zallik, nafosatlilik, jozibadorlikka bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.

Turli materiallardan foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini estetik didini oshirib boradi. Masalan, gullar va lola ta'sviridan osma o'yinchoq tayyorlash uchun ularning uchta yoki to'rta tasvirini teng o'rtasidan ikkiga buklanadi. So'ng bir-birlariga biriktirib qo'yish uchun ip orasidan o'tkaziladi. Lola tasvirini yanada chiroyliroq chiqishi uchun qirqib olingan gultoji barglarining o'rtasi yana bir bor dekorativ bezak sifatida qirqib (o'yib) olinadi. Hosil bo'lgan o'yinchoq tomonida boshqa rangdagi qog'oz yopishtirilsa, chiroyli bezak hosil bo'ladi. O'quvchilar ijodkorligini ortib borishi, estetik didi yuksalishi bilan birmuncha murakkabroq ko'rinishdagi gul tasvirini yasashga o'rganadilar. O'quvchilarni fanlarni qay darajada puxta o'zlashtirishi biz o'qituvchining izlanuvchanligi, muhimi tajribaga bog'liq. Yangi darsni avvalgilaridan qiziqarliroq tashkil etish va o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish har bir o'qituvchining asosiy maqsadidir. Bu esa ta'lim samaradorligiga erishishning muhim omillaridan biri. Turli o'yinlardan foydalanib o'tilgan dars, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining puxta o'zlashtirishi bilan bir qatorda ijodkorlik va estetik axloqiy fazilatlarini shakllantirib boriladi.

Bolalarning estetik tarbiyasi samaradorligiga erishishi uchun ularning ijobiy va intellektual qobiliyatlarini o'stirish zarur. Bu holatda bolalarda bilimdonlik, layoqat, qobiliyat, donolik, estetik dunyoqarash, ijodkorlik hissi oshib boradi. Mehnat kayfiyat baxsh etsin. Har qanday xatti-harakatda estetik ruh chaqnab turadi. O'quvchilarga turli ashyolardan narsalar yasashni rejalashtirishni o'rgatar ekanmiz, asboblarni to'g'ri ishlatish, buzmaslik yo'llari uqtiriladi, ish joyini toza tartibli saqlash ta'kidlanadi. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari bilan birga estetik, axloqiy tarbiyani ham birgalikda olib borish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni mehnat va kishi hayotida tutgan o'rnini aniqroq tushuntirish maqsadida har bir darsdan asosiy maqsad va uni amalga oshirish uchun qanday bilim, malaka va ko'nikmalar berish orqali estetik dunyoqarashlari shakllantiriladi. Turli materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni estetik tarbiyalash, ijodiy qobiliyatlarini oshirish juda ham muhimdir.

Turli materiallar o'quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantiradi, fantaziyasini va tasavvurlarini o'stiradi. Turli materiallar bilan ishlash ta'lim – tarbiyani hayot bilan bog'lashning eng muhim vositalaridan biridir. Mehnat ta'limini amalga oshirishda o'quvchilarning har tomonlama o'sishiga, ularni estetik ruhda tarbiyalashda yordam beradi. Shuningdek turli materiallar bilan ishlash o'quvchilarning bilimlarini aniqlashtirishga yordam beradi. Tarbiyaviy jihatdan muhim bo'lgan solishtirishda keng imkoniyatlar yaratadi, dars va darsdan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etishga sharoit yaratadi, tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otadi, o'quvchilarni go'zallikka nafosatga yetaklaydi. Turli tabiiy materiallarga ishlov berish ulardan nimalar yasay olishni tahlil qilish bolalarda mustaqil fikrlay olish bilan birga estetik dunyoqarashlari ham shakllantiriladi.

Boshlang'ish sinf o'quvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda turli materiallarning ahamiyati katta, turli materiallarga: loy, somon –poxol, kartonlar, qum, rangli toshlar, simlar, tuxum po'choqlari, yong'oq po'choqlari, gazlamalar, urug'lar, shisha siniqlari, daraxt shoxlari, barglar, plastilin, munchoqlar, o't-o'lanlar, bo'sh qutilar,, chig'anoqlar va shu kabilardan turli o'yinchoqlar yasash orqali o'quvchilarning estetik didi oshib boradi, dunyoqarashi kengayadi. Masalan har xil barglardan dars davomida aplikatsiyalar yasaydilar, bu orqali keraksiz barglardan gullar yasash mumkinligini bilib uyda ham ijod qiladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari juda ham qiziquvchan bo'ladi. Yong'oq po'choqlaridan plastilin yordamida yong'oq po'chog'iga yopishtirib toshbaqa o'yinchog'ini yasaydilar, yana bundan tashqari xon qizi, tipratikan kabi o'yinchoqlarni yong'oq po'choqlari orqali o'quvchilar po'choqlardan nimalar yasash haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Turli materiallardan o'yinchoqlar yodgorliklar va boshqa buyumlarni yaratishda badiiy konstruksiyalashga yaqinlashib keladi. O'quvchilarni ijodkorligini estetik hissiyotlari va badiiy moyilliklarini o'stirishga yordam beradi.

O'quvchilarni mehnat ta'limi orqali estetik ruhda tarbiyalashda chiqindi materiallarning o'rni ham muhimdir. Gugurt qutlari, atir idishlari, po'kaklar, choy

qutilari, yong'oq po'choqlari, tuxum po'choqlar, yeryong'oq po'choqlari, simlar, qurigan shoxlar, barglar, gul urug'lari, rangli toshlar, ruchka qutilari va shu kabilarni nazarda tutamiz. O'quvchilar ana shunday keraksiz idishlarni yig'ish, ulardan turli-tuman o'yinchoqlar yasashlari orqali ularning estetik didi yuksaladi, ijodkorligi ortadi va keraksiz narsalarni ham kerak ekanligini tushunadilar. Bunda o'quvchilar materiallardan tayyorlangan o'yinchoqlarning ta'sirchanligini oshirishda tashqi bezaklarning rangi, nomi va ulardan foydalanish yo'llarini bilishlari lozim. O'quvchilar moyqalam bilan ishlash va bo'yoqlarni suvda qorish yo'llarini bilmay turib, bu ishlarni ko'ngildagidek bajara olmaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi tabiiy materiallardan: qum, tuproq, shag'al, o'simliklarning ildizlari, sabzavot va mevalarning urug'lari, somon va shu kabilardan foydalaniladilar. Bunda bolalarning tabiiy materiallarida ifodalangan biron-bir obrazning o'xshashlik tomonlarini yanada ishlov berish orqali o'quvchilarning estetik dunyoqarashlari kengayadi. Ayrim hollarda tabiiy materiallardan yasaladigan shakllar, o'yinchoqning ifodaligi, ta'sirchanligini oshirishda tashlandiq va badiiy materiallar ham ishlatiladi. O'quvchilar kerakli tushunchalarni berishda masalaning ana shu jihatiga ham e'tibor berishlari lozim. Mashg'ulot uchun kerakli tabiiy materiallar mavsumga ko'ra yig'ib beriladi va kerakli turlarga ajratib qo'yiladi.

Mehnat darsiga oid ko'rgazmalarni tashkil qilishda turli materiallardan yasalgan buyumlarni ko'rgazma tarzida tashkil qilish: qog'ozdan (meva) vaza, idishlar, meva, non, uychalarni yasash bu orqali ko'rgazmalarni maktabda, tumanda, viloyatda, respublikada o'tkazib o'quvchilarni ijodga qiziqishini orttirib, estetik dunyoqarashini o'stiradi, go'zallikka, nafosatga chorlaydi. Boshlang'ich sinfda eng kerakli bo'lgan ruchka qutilarini o'zlariga kerakli bo'lgan qutilaridan hisoblashga doir sanoq cho'plarini yasashlari, yana ruchka qutilaridan kaltak sifatida foydalanib, ulardan gullar yasash orqali ularni tejamkorlikka, ijodkorlikka o'rgatib, estetik tarbiya ham berib boramiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik didini o'stirishga katta e'tibor berish muhim vazifa sanaladi. Qog'oz va karton bilan ishlash

o'quvchilarni estetik dunyoqarashini oshirishda yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi darslarida uning tarkibiy qismlari bo'lgan badiiy mehnat asoslari bilan ham tanishtirib boriladi. Bunda ular turli tabiiy materiallar bilan ham ish olib boriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi jarayonida quyidagi tabiiy materiallardan foydalanadilar: Yong'oq po'choqlari, urug'lar, qum, tosh, loy, yog'och, barglar, somon-poxol, daraxt shoxlari, rangli toshlar, o't-o'lanlar va shu kabi boshqa buyumlardan foydalanib o'yinchoqlar, turli buyumlar yasaydilar. Yasagan buyumlariga bezaklar berish orqali ularda estetik did rivojlanadi.

Tabiiy materiallardan o'yinchoqlar va boshqa buyumlarni yasash o'quvchilarni estetik didini ijodkorligini oshiradi. Bu ishlarni bajarish jarayonida bolalar quyidagi malaka va ko'nikmalarni egallaydilar hamda mustahkamlaydilar.

- Turli tabiiy materiallarga ishlov berish va mustahkamlash qoidalari;
- Turli tabiiy materiallar hamda ularni to'plash va saqlash qoidalaribilan tanishish , atrof - muhitni muhofaza qilish;
- Buyum uchun atrof muhitda ob'yekt tanlash;
- Buyumni tahlil qila olish. Detallar uchun materiallar, shuningdek, ularga ishlov berish uchun asboblari tanlash;
- Mustaqillikni, fantaziyasini namoyon qilish, ijodi qobiliyatlarini o'stirish.
- Boshqa materiallar bilan tanishtirish;
- Obrazlarni yaratishda konstruktorlik va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish;
- Tabiiy materiallarga ishlov berish asboblari bilan tanishtirish;

2-sinf o'quvchilari avval olma, nok, qo'ziqorin, sholg'om, bodring, lavlagi, gilos, qulupnay, idishlar, hayvonlarni yasaydilar. Bu qurigan buyumlarni 2-sinf o'quvchilari ularni silliqlashadi va akvarl yoki guvash bilan bo'yash tajriba va kuzatishlar o'tkazadilar. Buyum yasashda o'qituvchi nozik detallarni dastlab barmoqlari bilan keyin esa stek deb nomlanuvchi uchi o'tkir cho'plar bilan ishlov berish topshirig'ini beradi. O'quvchilar 1-sinfdayoq loydan xo'tikcha, toychoq, fil,

ayiq, ot, va shu kabilarni yasaydilar hamda ularni akvarel yoki guash yordamida bo'yashadi. Ranglarni moslab bo'yash o'quvchilarga estetik zavq bag'ishlaydi.

Loydan bundan tashqari ko'zachalar, piyola, kosa, oynak, kabilarni ham yasaydilar. Ularning sirtiga rasmlar asosida guvash yoki akvarel bilan bo'yashlari, naqshlar chizishlari o'quvchilarning fantaziyasini boyitadi, estetik didini o'stiradi. Loydan turli narsalar yasashga o'quvchilar juda qiziqadilar. O'qituvchilarning darsda ularga usta kulol yaratgan narsalardan namunalar keltirilishi o'quvchilarning ijodkorligini kengaytiradi va albatta o'zlari ham xuddi usta kuloldek san'at asari yaratishga undaydilar. Bu ham ularda estetik dunyoqarashlarini ham shakllantirib boradi. Mehnat ta'limining maqsadi kasbga yo'naltirishdir. O'quvchilarni ham 1-sinf dan boshlab ,shu kasbga qiziqishlari ayniqsa yoshligidanoq tikish - bichishga qiziqadilar. Shuning uchun ham bolalarni har tomonlama go'zallikka, nafosatga, soddalikka, tejamkorlikka o'rgatib borish orqali ularga estetik tarbiyani singdirib boramiz. Boshlang'ich sinf darslarida badiiy mashg'ulotlardan foydalanish quyidagilarni amalga oshirishda yordam beradi.

1.O'quvchilar turli tabiiy materiallardan foydalanish darslarida o'rganishlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

2.Tabiiy materiallardan foydalangan holda go'zallik yaratishning yangi usullarini, texnologiyalarini o'rganish orqali ularda estetik tarbiya shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda bundan tashqari mehnat darslarida naqshlar yaratishni ham o'rgatib boriladi. Masalan, gazlamalardan qolgan qiyqimlarni birlashtirib naqshlarni yaratish jarayonida o'quvchilarni estetik didi yuksaladi.

Gazlamadan tikish asboblari uchun xaltacha. Gazlamaning o'lchovini belgilaymiz chetlarini chiroyli qilib biriktiramiz ,har bitta asbob uchun joy ajratib olamiz. Nina qadalgan paxtani va uni tikib qo'yamiz va chiroyli haltacha hosil bo'ladi. O'quvchilar unga o'zlari xohlagan tasvirlarni berib chiroyli qilib bezaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari juda ham qiziquvchan bo'lganligi sababli o'quvchilardan yana qanday xaltachalarni yasash mumkinligi haqida suhbatlar

tashkil etish mumkin. Bu jarayon bu o'quvchilarning ijodkorligini oshirish bilan birga estetik go'zallik tuyg'usi ham shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiiy materiallardan o'yinchoqlar yasashda, gul barglari, mevalar urug'i, shaftoli tarvuz, qovun, oshqovoq va shu kabi urug'lardan turli xildagi narsalar, gullar, mevalar, hayvonlar, daraxtlar tasvirini chizib ramkalarni va gullarni har xil urug'lardan foydalanib tasvirlaydilar. Yasalgan narsalarni tasvirlash orqali o'quvchilarning estetik dunyoqarashi kengayadi. O'quvchilarga har xil danaklarni urug'larini tashlab yubormay turli xildagi o'yinchoqlarni, narsalarni yasash mumkinligini o'rgatish bilan birga ularga axloqiy tarbiya hamda estetik tarbiya ham berib boriladi.

Tabiiy materiallar qovun, qovoq, tarvuz urug'laridan naqshlar yasash. Qovun, qovoq, tarvuz urug'laridan kvadrat va to'g'ri to'rtburchak ichida ajoyib naqshlar ishlash mumkin. Naqshlarni ishlash o'quvchilardan yuksak estetik didni talab etadi. Naqshlarni tuzishdan avval naqsh uchun joy tayyorlaymiz. Endi naqsh tuzib naqshlarni karton yoki qog'ozni chetiga yelim bilan chiroyli qilib bir tekisda yopishtirib chiqamiz. O'quvchilar bilan birga har bir naqsh uchun nechta urug' ketganligini sanab chiqishimiz ham mumkin. Bu orqali o'quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham shakllantiramiz.

Qog'ozdan amaliy ishlar bolalarni qo'l mehnatiga o'rgatishda va ularni jismonan chiniqtirishda muhim o'rin egallaydi. Shuningdek qog'ozdan mozaika usulida turli buyumlar shaklini yasash jarayonida o'quvchilarning estetik didini oshirish, ranglarni farqini ajrata bilish kabi xislatlarni singdirishga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Qog'ozdan mozaika usulida quyidagi mavzuda amaliy mashg'ulot dars ishlanmasini tavsiya etaman.

Mashg'ulotning borishi:

I.Tashkiliy qism:

1. Salomlashish.

2.Davomatni aniqlash.

3.Uy vazifasini tekshirish va baholash.

4. Ish joyini tayyorlash (kerakli ish qurollari, materiallari bilan ta'minlash).

II. Asosiy qism.

Aqliy hujum.

O'qituvchi mashg'ulotning boshlanishida o'quvchilarni mozaika usuli haqidagi bilim va tasavvurlarini savol-javob orqali aniqlaydi.

a) mozaika usuli nima?

b) qog'oz bo'laklari nima yordamida yopishtiriladi?

Yangi mavzuni bayoni.

O'qituvchi mozaika haqida ma'lumotlar beradi. Hozirgi kunda mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va xalq amaliy san'ati asarlarini bezatishda bundan tashqari oyna, savollardan foydalanish, jumladan qog'ozdan mozaika usulida turli buyumlar, mevalar shaklini yasash mumkinligi to'g'risida tushuntiradi. O'qituvchi O'zbekistonda yetishtiriladigan meva turlari to'g'risida so'raydi.

O'zbekistonda qanday mevalar yetishtiriladi?

olma, shaftoli, o'rik.

nok, gilos, anor, olcha

anjir, uzum, olxo'ri, xurmo va boshqa mevalar.

Demak, o'quvchilar O'zbekistonda juda ko'p mevalar yetishtirilishi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Navbatdagi ish bolalar bilan sariq rangli qog'ozni maydalab mozaika usuli nok shaklini yasashni o'rganish. Bu amaliy mashg'ulotda quyidagi ish bosqichlarini bajaring.

1- bosqich.

Rangli qog'ozni tanlab olamiz.

O'qituvchilar mashg'ulot jarayonida o'quvchilarga kerakli ko'rsatmalar berib, amaliy mashg'ulot jarayonini nazorat qilish talab etiladi. Yaxshi bajarilgan ishlardan namunalar ko'rsatib tegishli amaliy yo'l-yo'riqlarni beriladi.

Qog'ozni turli uchburchak shaklida qirqib olamiz.

2-bosqich.

Nokning rasmini chizib oling.

3-bosqich.

Maydalangan qog'oz bo'laklarini rasmga yopishtirib chiqing.

III. Yakuniy qism:

1. Mashg'ulotning oxirida tayyor bo'lgan ishlarni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qiling.

2. Har bir o'quvchini bajargan ishlariga qarab izohli baholang.

3. Mozaika usulida olma shaklini yasashni uy vazifa qilib bering.

4. Ish joyini tozalanadi¹.

Ma'lumki o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda, ijodkorlikka o'rgatishda mehnat darslari jarayonida o'quvchilar narsalar yasash, ularga ishlov berish kabi ish usullarini o'zlashtiradilar. Qog'oz va karton, gazlama, tolali materiallar bilan ishlash badiiy ko'rish, yasash, texnik modellashtirish vazifalarini bajarish, ajdodlarimiz mehnati mahsulotlariga hurmat bilan qarash va shu orqali ularga vatanparvarlik hislarini uyg'otish, estetik tarbiya berish omillaridan bo'ladi.

O'quvchilar 1-sinfda qog'ozdan shakllar qirqishni o'rganadilar. Ular turli shakllar qirqib, shakllardan naqshlar tuzadilar. Rangli qog'ozlardan tabiat, uylar, gullar, daraxtlar, har xil hayvonlar, qushlarning shakllarini qirqadilar va har bir mavzu asosida ularni badiiy tasvirlashga harakat qiladilar. O'qituvchi namunalar ko'rgazmali qurollarni o'quvchilarga taqdim etadi. O'quvchilar darsliklardagi rasm asosida ham turli tasvirlar ishlaydilar. Masalan, "Bahor fasli" mavzusidagi rasmni rangli qog'ozlar orqali tasvirlashda, o'quvchilar gullardan daraxtlarni, gullarni yam-yashil maysalarni, gullarga qo'nib turgan kapalaklarni har bir darsda topshiriqni chiroyli, chiroyli ranglarni to'g'ri tanlagan holda estetik did bilan yondashishga, ijodkorlik hissi bilan ishlashga o'rgatiladi. Bunda albatta o'qituvchi o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish zarur.

¹"Maktab va hayot" jurnali 2-son 2011 yil 17 –bet.

Mehnat darslarida turli materiallar bilan ishlash jarayonida estetik tarbiya ya'ni har bir ishni chiroyli, ixcham, go'zal qilib tayyorlash va ulardan estetik zavq olish ishlari amalga oshiriladi. O'quvchilarga nafosat tarbiyasi beriladi. Ular o'z ishlaridan zavqlanish, qoniqish va ko'tarinki ruh shakllanadi.

Mehnat ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari ishlar texnik mehnat darslarining davomi qo'shimchasidir. O'quv mashg'ulotlari bilimlarga qiziqishini o'stiradi, o'quvchilarning estetik didini rivojlantiradi, sinfdan tashqari ish darsida bilimlarini kengroq qo'llash hamda chuqurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga sinfdan tashqari ish darsida bilimlarni kengroq qo'llash hamda chuqurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga sinfdan tashqari ish darsida berilgan materiallarni aynan takrorlamasligi kerak, u sinfdagi ishdan o'zining o'yin qiziqarli xarakterdaligi bilan ajralib turadi, sinfdan tashqari ish o'quvchilarga ishning o'zlariga ko'proq yoqqan, o'zlarini ko'proq qiziqtirgan turini tanlashlari uchun imkon yaratadi. Faqat sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlari, estetik qarashlari namoyon bo'ladi, bu yerda ular istalgan ish bilan shug'ullanishlari, qo'yilgan maqsadga erishishlari uchun kerak bo'lgan vaqt va kuchini sarflashlari mumkin.

O'quvchilarni tabiat qo'yniga sayohatga olib borish, shoirlar bilan uchrashuv, tadbirlar tashkil etish, o'quvchilarni ko'rgazmalarga olib borish orqali ham mehnat faniga qiziqish bilan birga ularga estetik tarbiya beriladi. Mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya, mehnatga munosabatini tarbiyalash-maktabdagi o'quv hamda sinfdan tashqari ishlarning o'zagi, maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlashning asosiy yo'lidir. O'quvchilarni mehnatga ruhiy va amaliy tayyorlash maktabning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biridir.

Maktabning turmush bilan aloqasi kundan-kunga mustahkamlanib bormoqda, sinfdan tashqari ishlarning o'quvchilar o'zlarining mustaqilliklari va tashabbuslarini namoyish eta oladigan, ularga jamiyat foydasi uchun tashkil etilgan mehnatning estetikasi ya'ni go'zalligi, nafosati, quvonchini va jamoaning kuchini his etishlariga yordam beradigan yangi shakl va usullari aniqlanmoqda.

Biz ko'p narsalarni o'rganishni faqat dars vaqtida bajara olmaymiz. Shuning uchun sinfdan tashqari olib borgan ishlarimiz katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning ijodiy faolligi oshadi, estetik didi o'sadi, dunyoqarashi kengayadi. Sinfdan tashqari ishlarda turli materiallar bilan ishlashda o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlariga qarab turli xil ishlarni ishlarni va estetik tarbiyani amalga oshirishimiz mumkin. Bajarilgan ishlarimizni ahamiyati haqida tushuntirib borilsa, boshlang'ich sinf ta'lim-tarbiyasida, shuningdek estetik tarbiyada ham yaxshi natijalarga olib keladi.

Mehnat topshiriqlarini, turli materiallardan narsalar yasash orqali estetik tarbiya berishni sinfdan tashqari ishlarda qo'llash o'qituvchidan muntazam katta tayyorgarlikni, har bitta to'garak ishlarini doimo nazorat qilib, ularni chuqur va mustahkam bilimlar bilan qurollantirib, tanlangan kasbiga qiziqtirib va o'quv fanlari mazmunini mukammallashtirib o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish kerak. Sinfdan tashqari ishlarda estetik tarbiyani samarali ravishda amalga oshirish, boshlang'ich sinflarda o'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi, ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi hamda badiiy estetik didini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'z vaqtida rejali, tartibli o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqish va havaslarini oshiradi, ma'naviy, mafkuraviy, estetik qarashlarini boyitadi.

Tajriba-sinov ishlari

Hech bir yangilikni amalda qo'llab ko'rmasdan, uning natijasi qanday bo'lishini oldindan aytib berib bo'lmaydi. Shu maqsadda "Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash metodikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga doir tajriba-sinov ishlarini olib bordim.

Tajriba ishim uchun ob'yekt qilib Namangan shahar XTB ga qarashli 11-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflarini tanladim. Men bu tajriba sinov ishida o'qituvchi Abdug'affarova Zulfiya rahbarlik qilayotgan 1 "D" sinfini va Abdullayeva Holida rahbarlik qilayotgan 1"A" – sinfini oldim. Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldim.

Darsni kuzatish va tahlil qilish;

Dars jarayonida o'quvchilarning qiziqishlariga qaratilgan usullarni kuzatish va idrok qilishlari qay darajada ekanligini aniqlash va amalda qo'llash;

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish yangidan-yangi usullardan foydalanish o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda yaqindan yordam beradi. Ushbu maqsadlardagi tajribani 3 bosqichda olib borishni rejalashtirdim. Har bir bosqich uchun maqsad va vazifalarni belgilab oldim. Ular quyidagilardan iborat:

1-bosqich. Kuzatuv bosqichi .

2-bosqich. Rivojlantiruvchi bosqich.

3-bosqich. Solishtirma tahlil bosqichi.

Men 1-bosqichni asosan mart oylarida olib bordim. Ushbu bosqichda men maktabning 2 ta 1- sinflarining bir necha darslarini kuzatdim. Bunga ko'ra ushbu bosqichda tanlangan sinflarda tajriba o'tkazgunga qadar bo'lgan vaqtgacha amaliyotdagi holatini aniqlash uchun maqsad va vazifalar belgilab olgan edim. Shunga ko'ra ushbu sinflarda kuzatishimda maqsad qilib, hozirgi kunda mehnat darslarida o'quvchilarga qay darajada estetik tarbiya berilayotgani, bajarayotgan ijodiy ishlariga estetik yondashishlari, o'quvchilarni turli materiallar bilan ishlashi, bezatishlari, ular uchun shart-sharoitlar, usul va vositalar, erishilgan natijalarni

aniqlash, darslaridagi ishtiroklarini tekshirish. O'qituvchining qo'llayotgan usul, vositalarining ana shu dars uchun qay darajada samara berayotganligini tahlil qildim. Mehnat ta'limi darsini, ya'ni 1^D sinf rahbari Abdullayeva Holidaxon, 1^A sinf rahbari Abdug'affarova Zulfiya va bundan tashqari bir necha mehnat darslarni kuzatdim. Muammoni har tomonlama ko'rib chiqish uchun ham usul va metodlardan foydalandim, shu bois o'quvchilar darsda yaxshi ishtirok etdi. Sinfda yoqimli psixologik muhit jarayoni yaratilmadi. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanildi. O'quvchilarda o'z- o'zini boshqarish, nazorat va baholashni yo'lga qo'ydi. O'quvchilarning ko'pgina qismi darsga qiziqqanlaridan ishtirok etayapti. Sinfdagi 20 % o'quvchi o'qituvchining majburlari ostida ishtirok etdi. O'quvchilarni o'ylashga, izlashga majbur etadigan ijodiy iliq muhit yaratilmadi. Darsda hech qanday interfaol usullardan foydalanilmadi. Yangi mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun berilgan topshiriq tekshirildi. Darsda ilmiy va zamonaviylikka kamroq e'tibor berildi. Bu dars yakunida o'quvchilarni qay darajada o'zlashtirayotganliklarini aniqlash maqsadida o'quvchilarga o'tilgan mavzuga doir savollar berildi va ularning o'zlashtirish darajalariga tashxis qo'yildi. O'qituvchi darsni an'anaviy usulda tashkil qildi. Dars samaradorligi o'rtacha darajada oshdi.

U darsni to'la o'zlashtirishlariga erishish uchun aniq maqsad qo'yilgan, shu tarzda men bir necha darslarni kuzatdim. Mehnat darslaridan tashqari o'qish, ona tili, tabiatshunoslik, matematika darslarini kuzatdim. Shu bir necha darslarni tahlil qilib, o'quvchilarni o'zlashtirish natijalarini umumiy holda hissoqlab chiqdim.

O'zlashtirish darajasi	1-D sinf	1-A sinf
A'lo	6 ta	7 ta
Yaxshi	11 ta	10 ta
Qoniqarli	10 ta	9 ta
	27	26

1-bosqich natijalaridan ko'rinib turibdiki, har ikkala sinfda ham o'quvchilar o'rtacha ishtirok etdilar. O'quvchilarning mustaqil, erkin, ijodiy, qobiliyatlarini

oshirish estetik tarbiyasini rivojlantirish, yondashuvlari uchun hech qanday muhit yaratilmagan. Ular deyarli barcha darslarda shunday ishtirok etayaptilar. Lekin ana shu yasash jarayonida kichik bir qog'ozdan gullar yasash mavzusiga doir gulni o'z qo'llari orqali, o'z fantaziyalarini idrok qilib yasash uchun yetarli malaka shakllangan emas. Bunga sabab deb men yuqorida keltirib o'tilgan bir necha kamchiliklarga yo'l qo'yilgan xatoliklar deb hisoblayman. Natijalar va ularning sabablaridan xulosa chiqarib, 2- rivojlantiruvchi bosqichini amalga oshiraman.

Rivojlantiruvchi bosqich .

Bu bosqich uchun ham maqsad va vazifalar belgilab oldim.

Maqsad: Dars jarayonida texnologik yondashish o'quvchilarning estetik didini, ijodiy faolligini oshirish uchun darslarga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, o'quvchilarni o'z mustaqil fikrlashini tarkib toptirish, mustaqil ijodiy ishlashga undovchi yangi usullardan foydalanish o'quvchilarda ruhiy tetiklik, kuzatuvchanliklarini orttirish, darsda turli shakllar va metodlardan va dars samaradorligini oshirishga erishish.

Vazifalar: Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida interfaol usullarni qo'llash. Darsga bo'lgan qiziqishini oshirish va sinfda samimiy, do'stona muhit yaratish, hamkorlikda faoliyat yuritish mazmunini aniqlash va har bir qilayotgan ishlariga estetik yondashish, ularning natijalarini jadvalga tushirish. Bu bosqichda boshlang'ich sinflarning 1 -"D" sinf va 1-"A" sinf darslariga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarning ijodkorligini oshirish, estetik o'stirish, ruhiy va jismoniy o'sishlari, dars samaradorligini oshirishga e'tibor qaratdim. Birinchi o'rinda dars samaradorligini oshirish uchun zamonaviy yangi ilg'or tajribalar, didaktik vositalardan keng foydalanish, mehnat ta'limi va tarbiyasining birligini ta'minlashi o'quvchilarga turli kasblarga tegishli dastlabki ko'nikma mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish kerak. Chunki bunda butun e'tibor o'quvchining faolligini va estetik didini oshirishga qaratilgan bo'lib, buning uchun shart-sharoitlar yaratish lozimligini inobatga olib, bu texnologiyalarning joriy

etishning yo'l- yo'riqlari va qoidalari haqida suhbatlashdim va turli metodlardan foydalandim. Bu bosqich uchun ham 1- bosqich asos qilib olindi.

1-^{"D"} sinf va 1-^{"A"} sinflarni belgilab oldim. 1-^{"D"} sinf va 1-^{"A"} sinflardagi olib borgan tadqiqotlarim asosan darslarda o'quvchilarning estetik didini yuksaltirish, qiziqish va faolligini oshirish, mustaqil ijodiy ishlay olishini shakllantirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dars loyihalari, usul va vositalari tanlab yo'nalishlar berdim.

1-^{"D"} sinfda har doimgidek an'anaviy usullardagi loyihalar asosida dars o'tildi. Ana shu tanlangan mavzular texnologik loyiha asosida ishlanib, yangi usul va vositalar, shakllangan dars loyihalari 1-^{"A"} sinf (tajribaga) taqdim etdim. Bu darslar kuzatilib, dars yakunida ikkita sinfdan ham bilim darajalarini qay darajada ekanligini aniqlovchi sinovlar o'tkazdim. Bunday rivojlantiruvchi bosqich asosida o'tilgan darslar mehnat, tasviriy san'at, atrofimizdagi olam kabi fanlar asosida tashkil qilinadi. Boshlang'ich sinflarda har bir darsda o'rgatilayotgan narsalar manitor orqali namoyish etilsa o'quvchilar uchun bajaradigan ishlari osonlashadi.

Anketa savollari orqali berilgan javoblarni tahlil qilganimizda qisqa va aniq, mazmunli javob berishda o'quvchilardan, o'qituvchilar bajargan ishlaridan olindi.

Anketa savollarini baholashda to'g'ri mazmunli va aniqlilik e'tiborga olindi. So'ng solishtirma bosqich amalga oshirildi.

Ushbu bosqichda olingan natijalar taqqoslandi.

Mehnat darsi	Nazorat sinf	Tajriba sinf
II marta	1- ^{"D"} sinf	1- ^{"A"} sinf
A'lo	6 ta - 24%	8 ta – 28 %
Yaxshi	10 ta -40%	13 ta -52 %
Qoniqarli	9 ta – 36 %	5 ta -20%


III marta	1- ^{"D"} sinf	1- ^{"A"} sinf
A'lo	7 ta - 28%	9 ta – 36 %

Yaxshi	12 ta -48%	14 ta -56 %
Qoniqarli	6 ta – 24 %	2 ta -8%

Tajriba – sinovidan oldingi natija.

Nazorat sinf 1-D sinf Jami o'quvchilar soni
30

Tajriba sinf 1-A sinf 28





Tajriba – sinovidan oldingi natija.

Jami o'quvchilar soni

Nazorat sinf 1-D sinf 30

Tajriba sinf 1-A sinf 28





Tajriba-sinovidan keyingi natija

Tajriba – sinovidan oldingi natija.

Jami o'quvchilar soni

Nazorat sinf	1-D sinf	30
Tajriba sinf	1-A sinf	28

Mehnat darsi	Nazorat sinf	Tajriba sinf
II marta	1 - "D" sinf	1- "A" sinf
A'lo	7 ta - 28%	9ta – 36 %
Yaxshi	12 ta -48%	14 ta -56 %
Qoniqarli	6 ta – 24 %	2 ta -8%

Bu bosqich natijalariga qaraydigan bo'lsak, o'quvchilarning bilimlariga, o'zlashtirishlariga baho berilgan topshiriqlarni qay darajada bajarganliklariga, og'zaki nutqiga, idrokiga mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, estetik yondashishlarini hisobga olib o'zlashtirish foizlarida aks ettiraman. Dastlab birinchi o'tilgan darslarda o'quvchilarga yangiliklar kiritib dars o'tish ancha qiyinchilik

tug'dirdi. Buning yaxshi samarali chiqishi uchun texnika vositalari va o'quv qurollari, xona jihozlanishi, barcha imkoniyatlardan foydalanish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga estetik tarbiyalashda tabiat vositalaridan foydalanish ularning badiiy dunyoqarashini tarbiyalash bilan bog'liq. Estetik bilimlar o'quvchilarda shakllanayotgan dunyoqarashni ob'ektiv tarzda kechishini, dunyoni, undagi voqea va hodisalarni muayyan omillar asosida o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu tariqa estetik tasavvuri rivojlangan bolada dunyoni anglash jarayoni samarali kechishi haqidagi ilmiy g'oyani tadqiqot natijalariga asoslangan holda ilgari surish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimizda ko'tarilgan dolzarb masalalarga birmuncha erishdik deya olamiz. Chunki, o'quvchilarga estetik tarbiya berish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Xozirgi jadal rivojlanib borayotgan davrda bugungi bitiruv malakaviy ishida olib borilgan ilmiy farzlarimiz yetarli darajada namoyon bo'ldi. Mamlakatimizning yuksak darajada rivojlanib borishida yosh avlodning va ularni estetik tarbiyalashning ham muhim ahamiyati bor, albatta. Yosh avlodga estetik tarbiya boshlang'ich sinfdan boshlanadi. Bu barcha fanlar negizida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf mehnat fanining ahamiyati kattaki, bu estetik tarbiya mana shu mehnat darslarida beriladi. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida barcha ish turlari orqali estetik tarbiya berib boriladi. Bitiruv malakaviy ishida mehnat darslaridagi ish turlari orqali estetik tarbiya berish usullariga alohida to'xtalib o'tildi. Bitiruv malakaviy ishida mavzuning dolzarb muammosi ilmiy tarzda misollar asosida o'z yechimini topildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda mehnat ta'limining o'rni beqiyos, bitiruv malakaviy ishida ko'plab ilmiy va amaliy ishlar olib borildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga estetik tarbiya berish muammosi ilmiy jixatdan isbotlab berildi, ya'ni qog'oz-karton, gazlamalar, tashlandiq materiallar,

tabiiy materiallar bilan ishlash, texnik modellash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi mehnati jarayonida o'quvchilarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish ishlari amalga oshirildi va bu mavzu yuzasidan tajriba- sinov ishlari o'tkazdim. Men tajriba ishim uchun ob'yekt qilib Nanangan shahar 11- umumiy o'rta maktabining 1^{"D"} – va 1^{"A"}-sinflarini tanlab olib, 1^{"D"} sinfda kuzatuv ishlari, 1^{"A"}-sinfda tajriba – sinov ishlarini olib bordim.

Bitiruv malakaviy ishida mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni estetik tarbiyasini oshirish uchun yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan, dars samaradorligini oshiruvchi turli metodlardan, ya'ni tushuntirish va hikoya qilish, suhbat, kirish instruktaji, texnika vositalaridan foydalanish, shu bilan birga sinfdan tashqari ishlar ham olib borildi. Darslarda yana turli adabiyotlar bilan ham ishlashga qaratildi. Dars ishlanma orqali amaliy mash'ulot o'tkazish bosqichlari ishlab chiqiladi. Tajriba sinov ishida amaliy mashg'ulot solishtirma misolida o'tkazildi.

Mashg'ulotlarni qiziqarli o'tishiga ham katta e'tibor qaratdim. Bunda mehnat darslarini tasviriy san'at, tabiatshunoslik, o'qish, odobnoma darslari bilan bog'lab olib boridi. Darslar yanada qiziqarliroq o'tishi va samara berishi uchun qo'shimcha to'garaklar tashkil etilgan. Darslar va to'garaklar jarayonida ham o'quvchilarning estetik tarbiyalari rivojlantiriladi. To'garaklarda materiallardan, qog'oz-kartondan narsalar yasash texnika vositalaridan foydalanish va boshqa narsalar o'rgatiladi. O'quvchilar yaxshiroq tushunishi va qiziqishi uchun yasagan narsalarini o'zlariga chizdirib ko'riladi. Mashg'ulotlar qiziqarli o'tishida turli metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning estetik qarashlarini yuksaltirish, ijodkorlikka yo'naltirish ishlari ham amalga oshirildi.

TAVSIYALAR.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik sifatlarni shakllantirish umumiy olib qaraganda barcha fanlar misolida ham namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinfida o'tiladigan barcha fanlar, masalan, matematika, ona tili, o'qish, jismoniy tarbiya, atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, musiqa, rasm, mehnat darslasida va boshqa

sinfidan tashqari ishlarda estetik tarbiyani batcha fanlar bilan uyg'un holda olib borilishi, estetik tarbiya uyg'unligini namoyon qiladi. O'quvchilarga o'qish darslarida o'qish, uqish, yod olish, ona tili darslarida yozish, chiroyli yozish, rasm darslarida chizish, mehnat darslarida esa tikish, yamash, bezash, loyihalash ishlarini bajarishlarida estetikaning o'rnini katta bo'lib, bu o'qituvchining o'quvchilarga munosabatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi bu topshiriq va vazifalarni bajartirishida, mustahkamlashda ma'lum bilim-ko'nikmaga ega bo'lishi lozim. O'qituvchida estetik did, estetik ko'nikma, estetik malaka rivojlangan bo'lishi lozim. Shundagina, o'qituvchilar estetik jihatdan bajarayotgan ishlarini o'quvchilar estetik jihatdan o'zlashtirib oladilar. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida barcha ish turlari bilan ishlashda albatta estetikaga amal qilish, o'quvchi uchun qulaylik yaratadi.

Chunki, estetika asosida did, farosat, ozodalik, mehnatsevarlik, mukammallik va boshqa sifatlar yotibdi. Boshlang'ich sinflarni barcha fanlar, xususan mehnat darslarida estetik tarbiyalashda turli shakl-metodlar orqali, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa estetik tarbiyaning mazmuni kelib chiqadi.

Tarixni bilmay turib kelajak yarata olmaymiz. Estetik tarbiya ham qadimdan ulug'mutafakkirlarning noyob durdonalari milliy urf-odatlar misolida bizgacha yetib kelgan. Shuning uchun ham, biz yoshlarni estetik tarbiyalashda tariximizni o'rgatish, milliyligimizni asrash, nodir durdonalarni o'rganishda o'z ustimizda muntazam ishlashimiz lozim bo'ldi. Yangi loyihalar yaratish, ularni estetik jihatdan ishlab chiqish, ta'limga tadbiq qilish, bulardan mehnat darslarida unumli foydalanish yoshlarni vatanparvar ruhda tarbiyalash bilan birgalikda, hayotga, oilaga mukammal inson bo'lib voyaga yetishishi uchun zamin yaratgan bo'lamiz.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar.

- 1.Karimov.I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin, O'zbekiston nashriyoti,Toshkent: 1995-yil 1-bet.
- 2.O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Toshkent 2000-yil 62-bet.

- 3.Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”, Ma’naviyat nashriyoti Toshkent: 2009-yil 174-bet.
- 4.Karimov I.A “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi so’zi”, O’zbekiston ovozi gazetasi 2010-yil 1 sentabr 1-bet.
- 5.KarimovI.A Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, O’zbekiston nashriyoti. Toshkent: 2010-yil 56-bet.
- 6.KarimovI.A “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”, Xalq so’zi gazetasi. 2011-yil 22-yanvar.

II. Ilmiy –uslubiy adabiyotlar.

1. Abu Ali Ibin Sino “Tibbiyot risolalari”, Fan nashriyoti Toshkent: 1987- yil. 136-bet
2. Egamov X “O’zingiz quring va yasang”, O’qituvchi nashriyoti Toshkent:1998-yil 20-bet.
3. Forobiy “Fozil odam shahri”, O’zbekiston Nashriyoti.Toshkent: 1993-yil 156- bet.
4. Mavlanova R.“Pedagogika” Toshkent. O’qituvchi nashriyoti 1996-yil 68- bet.
5. Mavlanova R (1-2-3-4 sinflar uchun),O’qituvchi nashriyoti 1996-yil 68-bet.
6. Mavlanova R ,Garoxova D, Ogluzdina L “Mehnat ta’limi metodikasi ”. Toshkent:1994-yil 168-bet.
8. Umarov E, Karimov R, Mirsaidova M, Ayxodjayeva G. “Estetika asoslari” Toshkent:2002-yil 132 bet.
- 9.Umarov E, KarimovR, Mirsaidova M, Oyxo’jayeva G “Estetika asoslari”, Cho’lpon nomidagi nashriyot manbaa ijodiy uyi.Toshkent: 2011-yil 3-6 va 138-145-betlar.
- 10.HasanboyevaG.K, KarimboyevaO.I, “Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash ”, O’qituvchi nashriyoti. Toshkent: 1990-yil 6-10-betlar.

III. Internet ma’lumotlari:

- 1.www.ziyonet.uz. ”Ajdodlar merosi”.
2. www.pedagogika.uz. ”Mehnat ta’lim metodikasi”.
- 4.www.fikr.uz. ”Mehnat ta’lim”.

MUNDARIJA

KIRISH-----	4-9
I.BOB. BOSHLANG’ICH SINF MEHNAT TA’LIMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI-----	10
1.1. Boshlang’ich sinf mehnat fanining ahamiyati va maqsad va vazifalari----	10-19

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasida mehnat ta'limining mazmuni---	20-27
1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga estetik tarbiya berishda ulug' mutafakkirlar merosidan foydalanish-----	27-38
II. BOB. BOSHLANG'ICH SINF MEHNAT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI ESTETIK RUHDA TARBIYALASH-----	38
2.1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash metodikasi-----	38-44
2.2. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida turli shakl va metodlar orqali estetik tarbiya berish-----	44-50
2.3. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida turli materiallar bilan ishlash jarayonida estetik tarbiya-----	50- 64
TAJRIBA-SINOV ISHLARI-----	64-70
XULOSA-----	71-72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR-----	73-74